

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o`zbek tili va adabiyoti

bakalavr ta`lim yo`nalishi

bitiruvchisi

Saparova Shahloning

«Umumta`lim maktablarida A.Qahhor adabiy merosini o`rgatish»

mavzuidagi

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2011

Malakaviy bitiruv ishi O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishining 2011-yil «___»
_____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakul'tet dekani:

f.f.n., dots. K.Tashanov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots.I.Dilmanov

Saparova Shahloning «Umumta'lim maktablarida A.Qahhor adabiy merosini o'rgatish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo'yildi.

«___» _____ 2011 yil

DAK kotibasi:

S.Bekchanova

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
ASOSLAMA.....	10
I BOB	
Umumta`lim maktablarida A.Qahhor ijodini o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari.....	12
II BOB	
A.Qahhor asarlarining o`quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.....	31
III Xulosa.....	48
IV Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	54

K I R I SH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin, yutimiz jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayoniga kirganligi, fan va madaniyatning millat manfaati uchun xizmat qilmaydigan mafkura iskanjasidan qutilganligi olimlar oldiga g'oyat muhim va kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, istiqlool tufayli umumta'lim maktablarida ajdodlarimiz merosini o'rgatish, zamondoshlarimiz ijodini teranroq tadqiq etishga keng yo'l ochildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andazalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda»¹.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya ishlariga qo'yilayotgan talablari nuqtai nazaridan maktabda adabiyot fanini o'qitishga alohida diqqat qaratilmoqda. Adabiyotning inson tarbiyasi, yosh avlodning dunyoqarashi shakllanishi, ong va tafakkurining yuksalishi, his va tuyg'ularining rivojlanishidagi o'rni beqiyosdir. Shu ma'noda, adabiyot o'qitish metodikasi hamda boshqa fanlarni o'qitish metodikasi kabi o'qituvchilarning ish - tajribasi hamda maktab hayoti yutuqlarini tadqiq qilib, o'rganib, ularni bir tartibga solish borasida muayyan natijalarga erishmoqda.

Maktabda o'zbek adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, badiiy asar kompozitsiya va syujeti, tili, yozuvchi uslubini o'rganishga ko'mak beruvchi manba sifatida adabiyot o'qitish metodikasidan qo'llanmalar yaratildi. Shuningdek, maktabda adabiyotdan yozma ishlar o'tkazish, adabiyot darsida ko'rgazmalilik, badiiy asarni tahlil qilish bo'yicha ham adabiyot nazariyasiga asoslanadigan qo'llanmalar nashr etildi, o'zbek adabiyotini o'qitish usuli borasida katta va kichik ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Maktab dasturiga asosan, o'quvchilar adabiy janrlarning barcha turlari: roman, povest, hikoya,

¹ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997 yil, 29 avgust. Toshkent, Sharq, 1997, 5-bet.

lirika, satira, poema, dramatik asar namunalari bilan tanishtiriladi. Shu bois, adabiy janr, uning turlari haqidagi adabiy-nazariy ma'lumotlar o'sha davrlarda berilib boriladi.

Yangi dasturda adabiyot janrlarining har birining o'ziga xos tabiyatidan kelib chiqqan holda, asarlar tanlanib darsliklarga kiritilgan. Ularning ichida asosiy janr sifatida nazm va nasriy asarlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan qator nasriy asarlar ichidagi kichik janrlarlarga yetarlicha diqqat qaratilgan. Adabiy janrlarda hayotiy voqea va odamlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Shu sababli, maktabda ular bir butunlikda o'rganiladi, asar mavzui, unda ko'tarilgan asosiy masala yoritiladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda nafosat tuyg'usi shakllantiriladi, ular qahramonlar obrazining xulq-atvori bilan tanishtiriladi, ularga yozuvchining so'z san'atkori ekanligi tushuntiriladi. Darhaqiqat, maktabda nasriy asarlardan she'r, roman, hikoya, qissa, dramatik asarlar yaratgan ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalarning asarlari o'rganilib, adiblar ijodi, asarlari haqida muayyan ma'lumotlar berilib boriladi.

Ta'kidlash joizki, XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti, xususan, biz so'z yuritmoqchi bo'lgan atoqli hikoyanavis Abdulla Qahhor ijodining maydonga kelish omillari, adibning o'rni va ro'li, so'zsiz, alohida ajralib turadi. XX asr o'zbek adabiyoti tarixida mavzu va janr jihatidan yuksalgan davr hisoblanadi. Ayniqsa, shu davrda yozuvchi Abdulla Qahhor yaratgan tom ma'nodagi durdona asarlar o'zbek adabiyotining xazinasini boyitdi. Yozuvchining o'zi esa o'zbek adabiyotida yangi realistik janri, novellaning asoschisi bo'lib qoldi. Uni hayotning har bir muammosiga o'z tig'ini qaratgan ijodiy merosinini tahlil qilgan ba'zi adabiyotshunoslar Abdulla Qahhorni o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri sifatida o'z davrida qizg'in faoliyat olib borgan adiblar qatoriga qo'yishadi.

Biz malakaviy bitiruv ishimizning asosiy ob'ekti sifatida maktabda Abdulla Qahhor adabiy merosini o'rganish bilan bog'liq masalalarni o'rganar

ekanmiz, uni atroflicha yoritish, o`ziga xos tamoyillarni tahlil qilish niyatida adib asarlaridan tanlab, ularni maktabda o`rgatish tamoiyillarini tahlil qilishni maqsad qilib qo`yganmiz. Darhaqiqat, bir necha yildan buyon o`qituvchilik faoliyati bilan bog`liq o`quv va amaliyotimiz, o`qituvchilarning darslarida ishtirok etib olgan taasurotlarimiz, ko`nglimizdan o`tgan his-tuyg`ularimiz bitiruv ishimiz mavzusini tanlashga asos bo`ldi. Ikkinchi sabab esa maktabda ma`rifatparvarlik harakati namoyandalari ijodini umumta`lim maktablarida chuqur o`rganish, ayniqsa, o`zbek adabiyotining yirik vakili sanalmish Abdulla Qahhor ijodi asosida adabiyot o`qitish metodikasini yanada jonlantirish, bolalar tarbiyasida adib ijodining ro`lini belgilash eng dolzarb masalalardan sanaladi. Qolaversa, bu yo`nalish metodik adabiyotlarda hanuzgacha maxsus tadqiqot ob`ekti bo`lgan emas.

Ta`kidlash joizki, taniqli olimlar, o`zbek adabiyotini o`qitish metodikasiga muayyan hissasini qo`shgan Asqar Zunnunov, Jabbor Esonov va boshqalar o`rta maktabda adabiyot fanini o`qitish masalalarini tadqiq etishda ancha mehnat qildilar. Ular maktabda o`zbek adabiyoti fani darslarida bolalar adabiyotini o`qitish borasidagi fikrlari bilan o`rtoqlashib, o`zlarining bir qator ko`rsatma va tavsiyalarini berganlar. Ular maktabda ma`lum davr yozuvchisi yoki shoir ijodi adabiyot tarixiga, ma`lum tarixiy sharoitdagi adabiy jarayonga, u yoki bu badiiy asarga bog`lab o`rganilishi lozimligini uqtiradi. Haqiqatan ham, shu nuqtai nazardan olib qaraganda, A.Qahhor ijodi haqida dastlabki bilim V - VI sinflarda berilsa, VII - VIII sinflarda u bir qadar chuqurlashtiriladi, izchillikda o`rganiladi, kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Olingan har qanday bilim hayotda, amaliyotda samarali qo`llanishi bilan kuchli. Shuning uchun ham o`quv dasturida o`quvchilarga Abdulla Qahhor ijodi haqida to`liq ma`lumot berish bilan birga, ularning olgan adabiy - estetik tushunchalarini mustaqil ishda, adabiy - tanqidiy asarlarni o`qish jarayonida ishlata olish ko`nikmasini hosil qilish lozimligi talab qilinadi. Shu bilan birga, o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan nazariy bilimlar ular ongida uzoq vaqt davomida, sinfdan - sinfga o`tish bilan shakllanib borishi nazarda tutilib, bu bilimlarni vaqti - vaqti bilan takrorlab, mustahkamlab borish kerakligi tavsiya etiladi. Masalan,

dastlabki adabiyot o`qitish sinflarida A.Qahhor uzoq vaqt mobaynida ijod qilganligi, o`zi aytganidek, ko`plab hikoyalar qoldirgani, shuningdek, uning madaniyatimiz tarixida tutgan o`rni, pedagogik faoliyati va adabiy merosi jamoatchiligimiz tomonidan yuksak baholanayotgani haqidagi ma`lumotlar berilsa, keyingi bosqichda A.Qahhorning muhitni anglashda va inson tarbiyasida kitobning ahamiyati, badiiy asarda insonning asosiy qahramon sifatida tasvirlanishi haqidagi umumiy nazariy ma`lumot bilan to`ldirilib boriladi. Natijada, maktab o`quvchilari Abdulla Qahhor ijodi haqidagi taasurotlarini o`zlari o`qigan asar namunalari bilan bog`lagan holda o`rganib, so`z san`atida ifodalangan masalalar bilan tanishadilar. Ular adabiy janrlarning xilma-xil ekani va shu janrlarda yaratilgan badiiy asarlarda inson asosiy qahramon sifatida yoritilishini, uning ichki kechinmalari va xatti-xarakati badiiy aks ettirilishi haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Adabiyot darslarida o`quvchilarni tez va ifodali o`qish ko`nikmasini egallashga o`rgatish, ularda badiiy asarni tahlil qilish malakasini hosil qildirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Bu jarayonda ham A.Qahhorning o`zbek adabiyoti turkumidagi, xususan, novella janriga mansub asarlaridan unumli foydalanish yaxshi samara berishi tayin. Natijada esa ularda o`qishga havas, adabiyotga muhabbat tuyg`usi o`stirilib, badiiy did shakllantiriladi. Darhaqiqat, maktabda XX asr o`zbek adabiyotini, jumladan, A.Qahhor adabiy merosi misolida o`qitish oldiga qo`yilgan bu maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, V sinfda o`quvchilar adabiyotni muntazam suratda o`rganishga kirishar ekanlar, dastur talabiga ko`ra, ular avvalo, adabiyotning san`at turi ekanligi, uning o`quv fani sifatidagi vazifalari, o`zlarini o`rab olgan borliq va o`z-o`zini anglashda kitobning ro`li bilan asta-sekin tanisha boradilar, adabiy tur va janrlarning xilma-xilligi haqida muayyan tasavvurga ega bo`ladilar. Umumta`lim maktablarda Abdulla Qahhor adabiy merosini o`rganish masalalariga bag`ishlangan ushbu malakaviy bitiruv ishida biz, asosan, masalani bir-biri bilan o`zaro bog`langan ikki bo`limga bo`lib o`rganishni ma`qul ko`rdik. Chunki, adib ijodi o`zinig janriy va mavzuiy xilma-xilligi jihatiga ko`ra, uni ko`proq hikoya janri asosida o`rgatish lozimligi

bilan ko`zga tashlanadi. Ishda, asosan, bugungi kunda adabiyot o`qitish metodikasida mavjud muammolar, xususan, Abdulla Qahhorning ijodini maktabda o`rgatish tamoyillari, adib ijodining o`zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o`rni, badiiy asarlarining o`ziga xos xususiyatlari haqida, adib ijodini o`qitishda adib asarlarning tuzilishi va ijod jarayonining qonuniyatlariga e`tibor berilishi darajasining amaliyotga joriy etilishi masalalari atroflicha o`rganildi. Maktabda Abdulla Qahhor ijodini o`rganish asnosida yuzaga keladigan xulosalarni asoslash maqsadida biz adibning asarlariga murojaat qildik, va tahlil jarayonida kelib chiqqan xulosalarimizni adibning she`riy va dramatik asarlarida foydalanish lozim bo`lgan nazariy tushunchalar bilan mustahkamlab bordik. Abdulla Qahhor yaratgan asarlarni o`rganish borasida o`quvchilarning yoshi bilan bog`liq muammolarga duch kelganda, asosan, nimalarga e`tiborni qaratish kerakligini, bunga qanday yo`llar bilan erishiladi, natijasi qanday bo`ladi kabi savollarga adabiyot darsi jarayonida nazariy bilimlarni berish orqali javob berishga harakat qildik. Darhaqiqat, metodika sof ilmiy ishdan ko`ra tajribaga, amaliyotga moyil. Bu aksariyat hollarda jiddiy tajribani xulosalab, aniq bir gipotezaga tushurishni maqsad qiladi, ko`p hollarda esa eksperimentga ham suyanadi. Ayni paytda uning ilmiyligi ham ana shu tajribaga suyanadi. Biz o`z tajribamiz bilan bir qatorda yetuk o`qituvchilarning ham tajribasiga amal qildik, ularning eng maqbul tomonlaridan ishimizda zarurat qadar foydalandik. Umumta`lim maktablarida A.Qahhor ijodidan saboq berishda bir qator o`ziga xos tamoyillari mavjud. Kichik va yuqori sinflarda ko`pincha alohida asarlar o`qitilib, dars asosan tahlil tarzida tashkil etiladi. Sal yuqoriroq sinflarda esa asar tahlili uning janri, muallif ijodining o`sish yo`llarini tanitish, davr adabiyotiga qo`shgan hissasini o`rgatib o`tish bilan bog`liq holda o`rgatishga diqqat qaratiladi.

Abdulla Qahhor ijodini maktabda o`qitishdan yana bir maqsad – yoshlarni badiiy asar orqali yuksak tarbiya berishdir. Ishda A.Qahhor asarlarini o`qitish jarayonida o`quvchilarni har tomonlama tarbiyalash masalasi haqida ham so`z yuritiladi. Albatta, tarbiya bilan bilim egizak desak da, tarbiya berish deganimiz

– asarning tabiati, gʻoyaviy yoʻnalishina ham bogʻliqdir. Masalan, A.Qahhor asarlarini oʻtishda tarbiyaning mana shu turi beriladi deya uzil-kesil aytib boʻlmaydi. Zero, tarbiya bu kompleksli ish. Asarlarida mehnat ham, aql - farosat, insoniylik bilan shijoat, topqirlik xususiyatlari ham keng targʻib qilinadi. Buning barchasi umumxalq tarbiya, xalq pedagogikasi hisoblansa kerak.

Biz oʻz malakaviy bitiruv ishimizda oʻquv dasturi, unga oid soʻzlarni, shuningdek, har bir sinf adabiyot darsligiga mos metodik tamoyillarni qalamga oldik. Chunki, dastur asosiy xujjat, undan chiqib ketib boʻlmaydi. Shu bois, Abdulla Qahhor ijodiga oid ayrim nazariy tushunchalarni oʻqitish yoʻllarini tanitishda fikrlar takrori uchrashi ham ehtimoldan holi emas.

Ishimizda koʻtarilgan masalalar adabiy taʼlim metodlarini takomillashtirish, adabiyotni boshqa fanlar bilan bogʻlab oʻrganish metodlarini oʻzaro aloqada qoʻllash, taʼlimda ijodiy oʻqish, tadqiqot va reproduktiv metodlardan oʻrinli foydalanish ustida olib borilayotgan umumiy ishga munosib hissa boʻlib qoʻshiladi, oʻquvchilarda adabiyot faniga, badiiy asarga, ijodiy ishga havas, qiziqishlarini oʻstirishga yordam beradi deb hisoblaymiz.

A S O S L A M A

Mavzuning dolzarbligi: Maktabda Abdulla Qahhor adabiy merosini oʻrgatish masalasi hozirgi adabiyot oʻqitish metodikasi fani oldiga qoʻygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu jarayon

o`quvchilar ongiga adib yaratgan bebaho asarlar mazmunini singdirishda maqbul yo`llarni izlash va ular tomonidan adib asarlarida qalamga olingan davrga xolis baho berish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabda Abdulla Qahhor adabiy merosini o`qitish, adib hikoyalari misolida ularni tarbiyalash masalalari hozirgi adabiyotshunoslik va adabiyot o`qitish metodikasida yetarlicha bahosini olayotgani yo`q. Shu bois bu masala birinchi bor tadqiqot ob`ekti bo`lmoqda. Umumta`lim maktablarida yozuvchi asarlari adabiyot o`qitish metodikasi nuqtai nazardan o`rganilmaganligi mazkur tadqiqot ishining mavzui dolzarbligini tashkil etadi.

Ishning maqsad va vazifalari: Bitiruv ishining asosiy maqsadi umumta`lim maktablarida XX asrning taniqli yozuvchisi Abdulla Qahhor adabiy merosini o`rgatish, hikoyalari kompozitsiyasi tahlili misolida adabiyotdan dars berish tamoiyllarini aniqlash va tavsiya qilishdir.

Tadqiqot ob`ekti va predmeti: Ishimizning asosiy ob`ekti sifatida biz o`zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning har xil davrda yozgan hikoyalari tanladik. Mavzuimizda ko`tarilgan muammoni tadqiq qilishda yozuvchi ijodiga oid ko`plab adabiy qarashlarga murojaat qildik.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: Ishning metodologik asosini o`zbek adabiyotshunosligi, adabiyot tarixida taniqli olimlarning Abdulla Qahhor adabiy merosiga oid ilmiy qarashlari, ilmiy izlanishlar va ilmiy maqolalari tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy uslub asosida ish yuritildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Ushbu bitiruv ishi maktabda Abdulla Qahhor ijodini o`rganish yo`llarini belgilash borasida dastlabki umumlashtiruvchi ishdir. Bu masala Abdulla Qahhor turkum hikoyalar tahlili jarayonida yoritiladi. Ishda nazariy tushunchalarni o`quvchilarga o`rgatish

kompozitsiya, hayot haqiqati va badiiy haqiqat kabi nazariy ma`lumotlar tadqiq etiladi. A.Qahhor asarlarining badiiy taffakuri taraqqiyotidagi o`rni va ahamiyati nazariy jihatdan umumlashtiriladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Ishning materiali hamda ilmiy-nazariy xulosalaridan quydagi maqsadlardan foydalanish mumkin: Abdulla Qahhor ijodi, shuningdek, maktabda adib ijodini o`rgatish yo`llari yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarda, ilmiy-amaliy anjumanlarda, Oliy o`quv yurtlari, akademik litsey va kollejlarda ma`ruza matnlari tayyorlash, maxsus kurslar o`tishda foydalanish.

Ish tuzilishi va tartibi: Malakaviy ish kirish, asoslama, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati qismlardan tashkil topgan.

I B O B

Umumta`lim maktablarida A.Qahhor ijodini o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari

Umumta'lim maktablarida Abdulla Qahhor ijodini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. O'rta maktabda atroflicha o'rganiladigan adabiy janrlardan biri hikoya janridir. Hikoyaning o'ziga xosligi nimada, janriy xususiyatlari qanday degan savollarga ayni vaqtda javob berishga hojat bo'lmasa kerak. Avvalo, hikoyani o'rganish katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur janrga oid asarlar o'quvchilarda dastlabki odob-axloq tushunchalarining shakllanishiga imkon beradi, ularning hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi, tasavvurlarini kengaytiradi, o'quvchilarda adabiy ta'limni kamol toptirishda asosiy omil hisoblanadi. O'quvchilar asar qahramonlarining xatti-xarakatlarini, asarda ishlatilgan badiiy tasvir vositalarini muhokama qilish jarayonida badiiy-g'oyaviy tahlil ko'nikmalarini egallaydilar, asar kompozitsiyasi, badiiy vositalarning boyligini bilib boradilar. Chunonchi, Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam» hikoyasida o'zining betakror xarakteriga ega bo'lgan, esda qoladigan individual xususiyatlari bilan ajralib turadigan qahramon obrazini tushuntirish uchun mubolag'a, o'xshatish, sifatlash, takror, manzara kabi vositalarning qanday foydalanilganligi, bu tasvir vositalarining vazifalari va mohiyatini ochish zarur bo'ladi. Chunki shu orqali qahramonlarning qarashlari, g'oyaviy nuqtai nafari, hayotga munosabatini anglashda o'quvchilarga katta yordam beradi. Bu o'quvchilarning badiiy asarni mukammal idrok etishgagina emas, balki ma'naviy dunyosiga ham ta'sir etadi. Shundagina hikoyaning qahramon obrazi Faxriddin o'quvchilarda muayyan emotsional munosabat uyg'otgan holda eslarida qoladi. Aslida, Faxriddin boshsiz odam, aniqrog'i, uning boshi bor, ko'rinishdan hech qanday kamchilikka ega emas, lekin shunga qaramay, u - boshsiz, ya'ni miyasiz. Faxriddin yoshi anchaga borib qolgan bo'lsa ham, mustaqil fikrlay olmaydi. U hayotdagi eng oddiy haqiqatlarni ham bir-biriga chaqib, tahlil qilish qobiliyatidan mutlaqo mahrum. Uning hayotda o'zni yo'q, u o'zini shaxs sifatida idrok ham etolmaydi, butun olamga, odamlarga, ular o'rtasidagi munosabatlarga otasining ko'zi bilan qaraydi, hamma narsani otasining qarichi bilan o'lchab, otasining didi bilan baholaydi. Uning noshudligi, notavonligi, shakligina odamga o'xshashligi, ayniqsa, tug'ruqxonada

yotgan Mehrini ko`rgani borgani tasvirlangan epizodda yorqin ochilgan. Bu qahramon o`quvchilar uchun hayotda qanday bo`lish kerakligini ko`rsatuvchi namuna bo`ladi. Binobarin, o`quvchilarni badiiy matnda qo`llanilgan badiiy tasviriy vositalar orqali asar kompozitsiyasi, g`oyaviy-badiiy mazmuni, tarbiyaviy va estetik mohiyatini anglashga, «o`qib olishga» o`rgatiladi. Bu asardagi tasviriy vositalar ustida olib boriladigan ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Metodist olim A.G. Baliberdin ta`kidlaganidek, sifatlash, istiora va boshqa obrazli ifodalar fikr va hayolni uyg`otishi, narsa va hodisani «ko`rish»ga, his etishga yordam berishi bilan muhimdir. So`zning obraz bilan bunday uzviy aloqasini anglab olish ko`nikmasini rivojlantirish - badiiy til tushunchasini shakllantirish yo`li xuddi shundadir. Bu hikoyada yozuvchi xalq ijodga xos usullardan ham, rus klassik adabiyoti tajribasidan ham samarali foydalangani ko`rinib turibdi. «Boshsiz odam» hikoyasining yana bir jihati bor - bu jihat Abdulla Qahhor uslubining o`ziga xos tomonlaridan birini namoyon qiladi. «Boshsiz odam» - real hayotiy faktlar asosida, yozuvchi o`zi hayotda ko`rgan, kuzatgan hodisalar zaminida yaratilgan. Faxriddin hayotda o`z prototipiga ega. Bu yozuvchining amakivachchasi G`affor. Uning otasi, Abdulla Qahhorning amakisi esa hikoyaga o`zining hayotdagi nomi bilan-usta Abdurahmon bo`lib kirgan. Adib keyinchalik «O`tmishdan ertaklar»da amakisini ham, G`afforni ham ancha keng tasvirlangan, ularga munosabati sovuq bo`lganini hikoya qilgan. Tabiiyki, adib hikoyaga hayotdagi voqealarni qayta ishlagan holda, saralab kiritgan, shu tufayli ham feodal psixologiyasining aksil-insoniy mohiyatini durust ochib bergan. Shu tariqa berilgan nazariy ma`lumotlar orqali maktab o`quvchilari nasriy asardagi tushunchalarni bilib oladilar. A.Qahhor «Boshsiz odam» dan keyin ham hikoyalar yozishda davom etadi. Tabiiyki, keyingi hikoyalarida ham voqelikdagi hodisalarni aks ettirishga harakat qiladi, bu hikoyalarning markaziga o`ziga xos xarakterga ega bo`lgan qahramonlarni qo`yishga intiladi. Biroq har sabablarga ko`ra hammavaqt ham bunga muvaffaq bo`lavermaydi. Uning «Olam yasharadi» to`plami haqida adabiyotshunoslikda umumiy tarzda mushohada yuritib, uni salbiy baholab o`tib ketaverish odat

tusini olgan paytlar ham bo'lgan edi. «Tangrining kulgusi» yosh adibning izlanishlari qanday kechayotganligi haqida muayyan tasavvur beradi. A.Qahhor bu hikoyada dinning reaksion mohiyatini ko'rsatish maqsad qilib olgan. Adib bu muhim g'oyani bevosita shiorlar yalang'och tarzda ifodalash mumkin emasligini yaxshi tushunadi, shuning uchun u o'z qahramonini favqulodda vaziyatga soladi-da, tangri bilan bevosita to'qnashganday qilib ko'rsatadi. Shunisi muhimki, adib hikoyada hayotiy detallarlan keng foydalanadi, hatto biografik faktlarni ham hikoya to'qimasiga singdirib yuboradi. Masalan, hikoya qahramoni Buvaydalik Mirzaahmad degan odam. U - kosib, qoshiqchi usta. Adibning qoshiqchilik kasbi haqida aytganlari u bu kasbning past-baland tomonlaridan yaxshi xabardor ekanligidan dalolat beradi: «Qoshiqchilik o'zi bo'lmag'ur kasb, Osh bo'lsa uni ko'tarib ham ichsa bo'ladir, ammo osh bo'lmasa, qoshiqni yeb bo'lmaydi. Mirzaahmad qoshiqchi bozorga qoshiq olib chiqsa, odamlar so'kar edi. Chakana savdo yo'q, vofurushlar ulgurji olishadi-yu, ammo tuproq bahosi...» Shundan keyin vofurushlarning zulmi haqida, Mirzaahmadning turmush mushkulotlarini yengillashtirish uchun jonini jabborga berib urinishlari haqida gap ketadi. Nihoyat, Mirzaahmadning ro'za kunlari sillasi qurib, ishga yaramay qolgani, tirikchilikni o'tkazish uchun ro'zasini buzishga majbur bo'lgani va qo'lga tushib, o'lguday kaltaklangani ko'rsatiladi. O'quvchilar bularning bari hayotiy va ishonarli chiqqanlagiga amin bo'lishadi. Buning ustiga xarakterlar Abdulla Qahhorning eng yaxshi hikoyalaridagi kabi jonli obrazlarda ochilgan. Avtor qo'llagan o'xshatishlar qahramon xarakterini konkretlashtirish bilan birga, uning ruhiy holatini ochishga ham xizmat qiladi. O'quvchilar hikoya mazmuniga chuqur kirib borib, o'qituvchi yordamida asar shakli haqidagi nazariy ma'lumotni osonlik bilan tushunib oladilar. Demak, badiiy asarning bosh mazmuni yozuvchi ifoda qilmoqchi bo'lgan g'oya bo'lsa, ana shu Goya badiiy tarzda obrazlarda o'z aksini topadi. Obrazlilik hayotni aks ettirishning usulidir. Obraz badiiy asarda mavzu va g'oya, syujet va kompozitsiya, badiiy til kabi vositalar orqali yaratilar ekan, bu unsurlarning hammasi ham shakl sanaladi. Demak, badiiy asar mazmunining «libosi»,

qobig`i, jasadi shakldir. Mazmun shaklga nisbatan doimo yetakchilik qiladi, doimo o`ziga munosib qobig`ini yaratadi. Mashhur nazariyotchi olim I.Sulton, Abdulla Qahhor ijodining pafosini-«umum ma`nosini»-zamonaviylik va badiiylik deb ta`riflaydi. Bizningcha, bunday belgilash unchalik asosli emasga o`xshaydi. Chunki, yozuvchi ijodining pafosi uning asarlari qaysi konkret tarixiy sharoitda yozilganiniga va ijtimoiy hayotda qanday tarbiyaviy estetik rol` o`ynayotganiga qarab tayin etilar ekan, shu nuqtai nazardan qaraganda, A.Qahhor o`zbek xalqining o`tkan asr boshidagi hayotini mehnatkash xalqni tasvirlaydi. Uning ijodiy pafosi o`tmishning va bugunning sarqitlarini fojeiy oqibatlarini realistik tasvirlash va xalqni shu fojealardan tezroq qutulishga chorlashdir, Mana shu pafos A.Qahhor asarlaridagi fikr va hissiyot birligini, asarlarining asosiy g`oyasini, ijodining umumiy yo`nalishini tayin etadi. A.Qahhor ijodining pafosini to`g`ri tushunmaslik yoki uni sotsialistik realizm va kommunistik partiyaviylik nuqtai nazaridan kelib chiqib belgilash natijasida ba`zi tanqidchilar A.Qahhor tarixiy o`tmishga murojatini sovet voqeligini tasvirlashdan qochish, unga salbiy munosabat natijasi deb da`vo qilgan bo`lsalar, ba`zilari esa A.Qahhor sovet voqeligini madh etuvchi yozuvchi, deb xulosa chiqaradilar. Bu ikala nuqtai nazarning bir yoqlamaligi sana`tkorga turli bo`hton va kamchiliklarni yopishtirishga sabab bo`ldi. Ushbu ikki xil noo`rin qarashlar adabiyotning qalbiga siyosatni joylashtirishga urinish oqibatidir. Bugungi mustaqillik va istiqloq mafkuramiz, estetik saviyamiz ularni rad qilmoqda. Hayot haqiqatni va ezguliklarni kuylash, insoniylik qadri uchun kurash osongina yuz bermasligini yana bir bor isbotlamoqda. Darvoqe, Abdulla Qahhor umri davomida buyuk haqiqatni izladi. Hikoyadagi aks etgan voqealar hayotiy, g`oyat ishonarli. Buning ustiga xarakterlar Abdulla Qahhorning eng yaxshi hikoyalaridagi kabi jonli detallarda, aniq obrazlarda ochilgan. Muallif qo`llagan o`xshatishlar qahramon xarakterini konkretlashtirish bilan birga, uning ruhiy holatini ochishga ham xizmat qiladi. Masalan, qoshiq yasash uchun Mirzaahmadning bir tup yong`oq olgani, uni kesishga mardikor solishga kuchi yetmay, o`zi kesgani shunday tasvirlanadi: « U ...ertalab arrani bir parcha

sholchaga o`rab, qo`ltig`iga qisadi, boltani yelkaga tashlaydi-da, yong`oq kesgani ketadi, shu ketganicha kechqurun sovuqda qolgan pashshaday o`rmalab keladi». Bunga o`xshagan tasvir adibning mahorati balog`at bosqichiga qadam qo`ya boshlaganidan dalolat beradi. «Olam yasharadi» va «Tangrining kulgisi» to`plamiga kirgan hikoyalar har qancha zaif bo`lmasin, ularning eng yaxshilarida shunday xususiyat mavjudki, ular yosh adib ijodida yaqin kelajakda jiddiy ko`tarilish yuz berishidan dalolat borardi. Haqiqatan ham, 30-yillar o`rtalarida shunday ko`tarilish sodir bo`ldi. Buning dastlabki belgilari «Maston» va «Ko`r ko`zning ochilishi» degan hikoyalarda namoyon bo`ldi. Har ikkala hikoyada ham yosh adibning avvalgi asarlarida ko`rinmagan yangi bir xususiyat bor – yozuvchi yangi voqelik faktlari haqida qalam tebratar ekan, uni, birinchi navbatda, shu hayot uchun kurashgan qahramonona xarakterlar qiziqtiradi. «Maston» hikoyasi «ichkari» ning asriy kishanlarini parchalab tashlab, yangi hayotga intilayotgan o`zbek ayolining xarakterini ochish asosiga qurilgan. Hikoya qahramoni Maston obrazida yozuvchi o`z ijodida birichi marta o`laroq faol kurashchi, aktiv inson xarakteriga qo`l urgan, faqat bunda u adabiyotda ko`pchilik yurgan yo`ldan bormay, o`z so`qmog`ini topib olishga intilgan. Gap shundaki, ko`p asarlarda bunday qahramon xakteri eski dunyo kuchlari bilan bevosita to`qnashuvda ko`rsatiladi, ular ochiq maydonda betmabet kurashib, murosasiz jang qilib, o`z tag`dirini belgilaydilar. «Maston» hikoyasida boshqacha ahvolni ko`ramiz. Maston qishloqdan shaharga o`qishga boradi. U dugonasi Turg`unoyni ham birga ketishga undaydi. Turg`unoy otasi o`lib, ko`chada qolmaslik uchun noilojlikdan erga tegishga majbur bo`ladi. Ammo chehtasi sovuq eri uning ko`ziga alvasti bo`lib ko`rinadi. O`tmishda Turg`unoylar bunday vaziyatga ko`nishi, umrining oxirigacha peshonam shu ekan deb tengsiz, erksizlik ichida o`tib ketishi muqarrar edi. Juda nari borganda ellik yashar do`ppifurush Abdurazzoqqa tushgan ammasining qiziga o`xshab, «pes bo`lsam, qo`yib yuboradi» deb ovqatiga kaltakesak solib yeyishi mumkin edi. Hozir esa qushday erkin qanot yozishi, katta hayot bag`riga chiqishi, parvoz qilishiga yo`l ochiq. Bu hayot lazzatini tortgan Maston uni

kelajakka chorlaydi. Yozuvchi Turg'unoyning ham, Mastonning ham individual xarakterini bergan, yorqin chizgan. Ular tuni bilan qo'rqinchli dasht vahimasini yengib o'tishadi. Turg'unoy yangi hayotga ilk qadamini qo'yayotgani uchun qiynchiliklar uni cho'chitadi, yo'ldan qaytishga undaydi. Maston esa katta maqsad yo'lida astoydil harakat qiladi. Uning irodasi, qat'iyyati o'quvchini maftun etadi. Yozuvchi butun ehtirosi bilan kuchli, shijoatli Mastonni qo'llab-quvvatlaydi, kitobxon qalbida ham unga nisbatan xairihoxlik tuyg'ularini uyg'otadi. Maston o'zini mushtipar ayol emas, erkin inson deb biladi. «Biz yorug' dunyoni ko'rish uchun tug'ilganmiz», - deydi Maston. - Biz tovuq emasmizki, qanday tuxum bostirsa shuni ochib chiqarsak». Uning bu so'zlarida o'z qadri-qimmatini chuqur tushungan inson g'ururi ifodalangan.

«Ko'r ko'zning ochilishi» hikoyasi ham qahramona xarakterni badiiy tadqiq qiluvchi hikoya. Uning markazida tuntarish tufayli uyg'ongan, o'zining sinfiy manfaatlarini chuqur anglagan, bu yo'lda bosmachilarga qarshi kurashgan Ahmad polvon obrazi turadi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu hiqoyada ham Abdulla Qahhor uslubining bizga tanish qirrasini namoyon bo'lgan, ya'ni u hikoyaga hayotda sodir bo'lgan voqeani asos qilib olgan. Adib bolaligida o'z ko'zi bilan ko'rgan voqea unga turtki bo'lgan. Shunday qilib, «Ko'r ko'zning ochilishi» real hayotiy zaminga ega, biroq shunga qaramay, hikoyada badiiy to'qimaga juda keng o'rin berilgan. Bu to'qima, aniqroq aytganda, yozuvchi badiiy tafakkurning qudrati qahramon xarakterini psixologik dalillashda yaqqol ko'rinadi. «Ko'r ko'zning ochilishi» xuddi shu jihati bilan 30-yillarda o'zbek prozasida ko'plab paydo bo'lgan va bosmachilarga qarshi kurash qahramonlariga bag'ishlangan hikoyalardan farq qiladi. Ularda ko'pincha qahramonning hatti-harakati yetarli dalillanmagan holda tasvirlanadi.

Shunisi qiziqqi, muallif hikoya qahramoni – Ahmad polvonning qanday odam ekani, yoshi, odatlari, tashqi qiyofasi haqida hech narsa demaydi. Biz uning tarjimai holi ham tanishmaymiz-faqat bir o'rinda Ahmad polvon o'zining kambag'allar toifasidan ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, uning o'lim oldidagi nutqidan biz Ahmad polvonning bosmachilarni ham, ularning pinjiga kirib

jon saqlayotgan boylarni ham, butun vujudi bilan yomon ko`rishini bilib olamiz. Ahmad polvon kitobxon ko`z o`ngida betakror xarakteriga ega bo`lgan tugal adabiy tip sifatida namoyon bo`ladi. Ahmad polvon qo`rboshining yaqin odami Isoq afandini chopib tashlagan. Shunisi muhimki, Isoq afandi balki jarohatidan qon keta-keta o`zi ham o`lardi. Biroq Ahmad polvon buni kutib o`tirolmaydi. Xullas, uning gunohi katta, shu qadar kattaki, buning uchun u, albatta, o`ldirilishi kerak. Xuddi sha jarayonda uning xarakteri ochiladi. U o`limdan ham xalq ishi uchun foyda chiqarishga harakat qiladi. Abdulla Qahhor hikoyada Ahmad polvonning fidokorligi, haqiqat yo`lida mardlarcha jondan kechishi boshmachilar orasiga g`ulg`ula soladi: «Tebranib yotgan sham zo`r mo`jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi. Polvon qattiq tovush bilan «sham!» -dedi va shu bilan birga nari – beri borib kelib turgan tosh uchlangan qirrasi bilan bekning boshiga tushib, yarmigacha o`yib kirib ketdi. Qo`rboshining o`ng yog`ida o`tirgan o`nboshi to`pponchadan uch marta o`q uzib polvonni yiqitdi. O`nboshining boshiga qandaydir miltiqning qo`ndog`i zarb bilan tushib qovoqday yordi. Shundan so`ng o`zaro otishuv boshlanib ketdi. Xullas, Ahmad polvonning o`limi behuda bo`lmadi. Uning fidokorligi, xalq ishiga sadoqati bosmachilar orasida adashib yurgan o`nlab yigitlarning ko`r ko`zini ochdi.

«Ko`r ko`zning ochilishi» o`lkamizdagi bo`lib o`tgan voqealarini tasvirlagan eng yaxshi hikoyalardan biridir. Bu hikoya «Maston» bilan birgalikda Abdulla Qahhorning davr ijobiy qahramonlari obrazini yaratish bobidagi dastlabki samarali ishi bo`lgan edi. Bundan keyin adib o`tmish haqidagi asarlaridan tashqari, asosan, hajviy hikoyalar yaratgan bo`lsa-da, ijobiy qahramonlar yaratish bobida orttirgan tajribasi keyinroq yuzaga keluvchi katta muvaffaqiyatlar uchun zamin bo`ldi. O`quvchilarga shuni yetkazish barobarida, adibning davr ijobiy qahramonlari obrazini yaratish bobidagi dastlabki samarali ishi bo`lgani, o`tmish haqidagi asarlaridan tashqari, asosan, hajviy hikoyalar yaratgan bo`lsa-da, ijobiy qahramonlar yaratish bobida orttirgan tajribasi keyinroq yuzaga keluvchi katta muvaffaqiyatlar uchun zamin

bo'lganligini eslatib o'tishi lozim. Bundan ko'rinayaptiki, yozuvchi A.Qahhor ulkan san'atkor sifatida turli siyosatlarni emas, balki el baxti uchun kurash yo'lini, bu baxtga qarshi bo'lgan «cho'p-xaslarni supura borish» yo'lini-buyuk haqiqat deb bildi va uni yoqladi, ezgulikni, insoniylikni, mustaqillikni, ozodlikni ulug'ladi, realistik hikoya tasvirini berdi. Buning isbotini hikoyaning turli unsurlar misolida ham ko'rsa bordi.

Yozuvchi hayotning qaysi sohalarini jonlantirmasin, uni xuddi o'zi ko'rganday qilib tasvirlaydi. Shunga asoslangan ko'pgina sodda kitobxonlar asar qahramonini muallifga nisbat beradilar. Fikrimiz tasdig'i uchun o'quvchilar bilan adibning yana bir qator hikoyalarini havola etamiz.

A.Qahhor 30-yillarning o'rtalarida birin-ketin «Anor», «O'g'ri», «Bemor», «Tomoshabog'» kabi hikoyalarini e'lon qiladi. Oradan bir-ikki oy o'tgach, «Millatchilar» hikoyasi bosilib chiqadi. Ularning hammasi o'tmish mavzusida bo'lib, oddiy odamlarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilardi. Bularda qalamga olingan ba'zi mavzular yozuvchining ilk ijodida ayrim fel'etonlar yoxud kichik hikoyalarda ham yoritilgan edi. Biroq o'rtada osmon bilan yercha farq bor edi. Keyingi hikoyalar hajman juda kichkina, bor yo'g'i ikki-uch sahifaga joy bo'lsa-da, ta'sir kuchi juda qudratli edi. Abdulla Qahhorning o'tmish haqidagi hikoyalari o'tmish manzaralarini g'oyat tabiiy va chinakam hayotiy chizadi. Kitobxon bu hikoyalardan odam haqida, o'tmish haqidagi olam-jahon tasavvurlar oladi. Bu tasavvur uning ongiga ta'sir ko'rsatadi, uning o'tmish to'g'risidagi bilimni kengaytiradi va ayni chog'da, uning hislariga ham ta'sir ko'rsatadi, bunda tengsizlik va adirlatsizlikka, zulm va jaholatga, erksizlik va nodonlikka qarshi otashin nafrat uyg'otadi. Bu hikoyalarni o'qigan o'quvchilar odam o'tmishga nisbatan, ulardagi qahramonlarga nisbatan loqayd qololmaydi. Abdulla Qahhor «Anor», «O'g'ri», «Bemor», «Tomoshabog'» kabi hikoyalarda o'tmishdagi zulmga, zo'ravonlikka asoslangan tuzumning qurboni bo'lgan odamlarning tipik obrazini chizadi, o'sha tuzum, ijtimoiy illatlar son-sanoqsiz insoniy fojialarni tug'dirgan zamin ekani ochib beriladi.

«Bemor» hajm jihatidan juda kichgina, «mitti» hikoya. Undagi voqea ham g'oyat oddiy – Sotiboldining xotini og'rib qoladi-yu, vafot etadi. Odamning kasalga chalinishi, xastalik tufayli vafot etishi tabiiy narsa, buning hayron qoladigan joyi yo`q. Albatta, har qanday tirik jonning ham hayotdan ko`z yumishi qayg`uli hodisa, kishi achinadi, afsuslanadi, dard chekadi. Biroq bu hodisada hali fojia yo`q. San`atkorning sehrli qalami ostida mana shu juda jo`n, tabiiy voqeani bayon qiluvchi kichik hikoya o`tmishni qoralovchi dahshatli aybnomaga aylanadi. Sotiboldi ham, uning xotini ham o`tmishdagi g`ayriinsoniy tartiblarning, ijtimoiy tengsizlikning, faqirlikning qurboni. Yozuvchi aniq topilgan, tejab ishlatilgan detallar orqali o`quvchini ana shu xulosalarga olib keladi. Ehtimol, Sotiboldining xotini tuzukroq davolanganda tuzalib ketishi mumkin edi. Ammo «kasalxona» deganda Sotiboldining ko`z oldida 25 so`mlik pul keladi. Uning xo`jayini Abdug`aniboyga bu cho`t emas, albatta. Ammo u Sotiboldiga xotinini doktorga ko`rsatishni maslahat bermaydi. Buni hayoliga ham keltirmaydi, aksincha, u devonai Bahovaddin bilan G`avsul a`zamga sadaqa atashini maslahat berishdan nari o`tmaydi. Chorno chor Sotiboldi xonaki tadbirlarga murojaat qilishga majbur bo`ladi. Xotinini o`qitadi, xipchin bilan savalatadi, chilyosun qildiradi. Sotiboldining «ko`ngilgi armon bo`lmasin» ma`nosida qilgan bu harakatlari cho`kayotgan odamning somon parchasiga yopishishini eslatadi. Yozuvchi bemor atrofidagi vaziyatni juda ixcham va aniq tasvirlaydi. To`rt yashar qizchasi qo`liga ro`molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo`riydi, ba`zan qo`lida ro`mol bilan mukka tushib, uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g`ing`illaydi, bemor inqillaydi, har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Hey do`st, shaydullo banomi ollo, sadaqa radi balo, baqavli rasuli xudo...» xira pashshalarning g`ing`illashi, bemorning inqillashi, gadoyning ahyon-ahyondagi tovushigina buzadigan go`riston sukunatiga o`xshash bu sovuq jimlik hikoyada muayyan psixologik og`irligini yanada bo`rttiradi. Sotiboldi qahri qattiq dunyoning tajovvuzi qarshisida himoyasiz, nochor, notavon. U faqat talvasaga tushishi, boshini har tomonga urishi, yig`lab-

siqtashigina mumkin, qo`lidan boshqa hech narsa kelmaydi. Zulmat dunyosida, tengsizlik olamida, fojia qarshisida notavonlik, ojizlik birgina Sotiboldining qismati emas. Hikoyada shunday detal` bor, talvasaga tushib, gangib qolgan Sotiboldi qo`shni kampirni yordamga chaqiradi. «Kampir bemorning to`zigan sochlarini tuzatdi, uyoq-buyog`ini siladi, so`ngra o`tirib yig`ladi». Sotiboldilar fojiasining butun dahshati har kuni saharda xudodan onasining dardiga shifo so`rab, duo qiladigan to`rt yashar begunoh go`dak orqali yanada chuqurroq ochiladi. Hikoya so`ngida onasining murdasi yonida ma`suma go`dakning uyqusirab aytgan: «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin» - degan so`zlarini o`qir ekanmiz, bu so`zlar bizga go`dak qalbidan chiqqan iltijo emas, insonni shunchalar xor qilgan, tilsiz, zaif notavon qurbonga aylantirgan, uni xurofot chilchirlari bilan bo`g`lab tashlagan dunyoga qarshi yuragimiz qaridan ko`tarilgan la`nat nidosiday tuyuladi. «Anor» hikoyasida o`tmishdagi kambag`al odamning fojiali hayoti boshqa tomondan ko`rsatilgan. Turobjonning xotini anorga boshqorong`i bo`lib qoladi- yu ayol kishining ma`lum davrdagi bu tabiiy holati Turobjonni o`g`irlik qilish be`mani narsa, ammo biz Turobjonni qoralamaymiz. Turobjon omi odam, umri birovlarining o`tin yorib, o`t yoqib...» tirikchiligini o`tkazadi, qozoni zangdan qattiq ham oqartirolmaydigan qora bo`lsa hamki, go`jasi qaynab turadi. Bu sertashvish, azob-uqubatli dunyoda uning birdan-bir ilinji, ko`ngliga ravshanlik baxsh etadigan - xotini. U xotinini sevadi. Bu sevgi kitoblarda bitilgan, ertaklarda kuylangan ko`tarinki sevgi emas, balki oddiy odamlar orasida bo`ladigan, bir oz dag`al, kundalik tashvishlarga ko`milib, ko`nikmaga aylanib ketgan sevgi. U tilga chiqmaydi, dilda cho`kib yotadi. Turobjon xotinining istagini bajarishdan, uning ko`nglini olishdan huzur qiladi, unga shirin gaplar aytgisi, boshini silagisi keladi. Xotinining ham dunyoda birdan-bir suyangani tog`i- Turobjon. Biroq ular bu tuyg`ularini ro`y - rost ifodalamaydilar, bir-birlariga yaqqol oshkor etmaydilar. Chunki tuyg`ularni oshkor qilish u muhitda rasm bo`lgan emas, ikkinchidan, mabodo rasm bo`lgan tag`dirda ham, ular buni qilisha olmas edi, negaki o`sha tuyg`ularga nom topishdan ojiz edilar. Bu

muhitda shu ikki mushtipar, mehnatkash, dasti qisqa odamga jinday baxt nasib etmaydi. Bu hikoyada ham adib shunday detallar topadiki, ular hikoya zamirida katta g'oyani, muhim hayotiy haqiqatni to'la ochishga xizmat qiladi. Hikoyada voqea shu qadar jonli gavdalandirilganki, o'quvchi o'tmishda inson boshida singan tayoqlarning qasir-qusurni aniq eshitayotganday bo'ladi. Hikoyada quruq nasihat, ensani qotiruvchi didaktika, zeriktiruvchi bayon yo'q, g'oya to'laligicha asarning to'qimasiga singib ketgan. Bunga yozuvchi xarakterlarni psixologik jihatdan chuqur asoslash orqali, tabiiylik va hayotiylik orqali erishgan. Shuning uchun u orqali asar tahlili jarayonida nazariy tushunchalarni o'quvchilarga yetkazib berish uchun qo'laylik tug'diradi. Unda ham adib shunday detallar topadiki, ular zamiridagi katta g'oyani, muhim hayotiy haqiqatni to'la ochishga xizmat qiladi. O'quvchi hikoyani o'qib chiqqach, o'zi mustaqil xulosaga keladi. Bu xulosa esa tengsizlik, adolatsizlik hukm surgan, mehnatkash odamni qashshoq va xor qilib qo'ygan dunyo ustidan chiqarilgan hukmday tuyuladi.

O'tmish haqidagi hikoyalar juda ihchamligi, soddaligi, psixologiya xarakterlarining aniqligi, detallarining yorqinligi, tilining rangdorligi, g'oyaviy umumlashmalarining kuchi bilan bu hikoya haqli ravishda kichik epik fo'rmalarda realizmning tantanasini ifodalagan ajoyib namuna bo'lib qoldi. Hikoyada voqea shu qadar jonli gapvdalandirilganki, o'quvchi o'tmishda inson boshida singan tayoqlarning qasir-qusirini aniq eshitayotganday bo'ladi. Hikoyada quruq nasihat, ensani qotiruvchi didaktika, zeriktiruvchi bayon yo'q, g'oya to'laligicha asarning to'qimasiga singib ketgan. Bunga yozuvchi xarakterlarni psixologik jihatdan chuqur asoslash orqali, tabiiylik va hayotiylik orqali erishgan.

Yozuvchi hikoya voqeasi tasviri tabiiy oqimini susaytirmaydi, vaziyat talab qilgan eng hayotiy detallarni kiritib, harakatni kuchaytiradi. O'quvchilarga voqea ishtirokchilari taqdiri yaqin bo'lib qoladi, ularda qahramonlar tag'diriga achinish hissini uyg'otadi. Adabiyot nazariyasidan o'quvchilarga bilim berishda, badiiy asarni tahlil qilishda uning mazmunini sayozlashtirish, qoliplarga solish

yo`lidan bormay, har bir asardagi badiiy barkamollikni, hayotiy teranlikni to`laligicha o`quvchi qarshisida namoyon qilib berish yo`lidan borishimiz kerak. Buning uchun esa har bir nazariyachi olim, har bir adabiyotshunos o`zi tekshirmoqchi bo`lgan asar darajasiga ko`tarila bilmog`i, o`sha yuksaklikdan turib, hayot va adabiyot haqida fikr yuritmog`i lozim.

Abdulla Qahhor o`tmish haqidagi hikoyalari hajman kichik bo`lsa-da, mazmunan teranligi, yuksak haqqoniyligi, badiiy o`tkirligi bilan o`zbek prozasi rivojida alohida o`rin tutishini, shu hikoyalarda realistik printsiplar uzil-kesil shakllanib, barkamol tarzda namoyon bo`lishini o`quvchilar yaxshi anglab olishlari kerak.

O`qituvchi adabiyot nazariyasidan ma`lumot berar ekan, avvalo, mazkur hikoyalardagi tarixiylik printsiplariga alohida diqqat qaratib, bu haqdagi tushunchalarni A.Qahhor hikoyalari bilan mustahkamlab borishi lozim. Chunonchi, 30-yillardagi adabiy vaziyat ancha murakkab bo`lsa-da, tanqidchilar adib boshiga biri-biridan vahimaliroq tahdidlarni yog`dirib turgan bo`lsa-da, adib bu yillarda ilhom bilan jo`shib-yonib ijod qilgani va ellikdan ortiq hikoyalar yaratganini aytadi. Ularning bir qismi yuqorida ko`rganimizdek, o`tmish manzaralariga bag`ishlangan edi. Ko`pchilik hikoyalar esa zamonaviy mavzularda bo`lib, ular ham g`oyaviy mazmunga, shakliy xususiyatlariga ko`ra ikkiga ajraladi. Bu hikoyalarning aksariyati hajviy hikoyalardir. Ularda odamlarda uchrab turadigan turli-tumagn kamchiliklar tanqid qilinadi. Bu hikoyalar o`z vaqtida juda katta ijtimoiy-tarbiyaviy qimmatga ega edi. Biroq shunga qaramay, 30-yillar ham, undan keyin 50-60-yillarda ham adabiy tanqidning jiddiy dashnomlariga duch keldi. Ayrim tanqidchilar Abdulla Qahhor hayotimizdagi ijobiy tendentsiyalarni ko`rmaydi, salbiy hodisalardan ko`proq zavq oladi, ular to`g`risida yayrab, yoyilib ta`nalardan siyosiy xulosalar chiqarishdan ham tortinmadi. Hadeb siyosiy hodisalarni qalamga olaverish voqeligimizni buzib ko`rsatishga olib kelmaydimi? Nahotki, fidokorlik bilan yangi hayot binosini qurayotgan azamat xalqimiz, uning matonatli farzandlari yozuvchining iliq so`ziga

munosib bo`lmasa? Bunday ta`nalar fikrlashdagi mahdudlik tufayli, nazariy saviyaning pastligi, adabiyotning mohiyatini, yozuvchining ro`li va vazifalarini bir tomonlama tushunish tufayli, shu davrdagi realizmni buzib ko`rsatish oqibatida tug`ilgandi. Tarixiylik mezonlarini o`quvchilarga tushuntirishda o`sha paytlarda keng tarqalgan va keyingi davrlarda uchrab turgan qarashlarga ko`ra, jamiyatda har jihatdan mukammal bo`lib, unda nuqson va kamchililar yo`q bo`lib, mabodo, birda-yarim kamchilik uchrab qolsa, u o`tkinchi, arziyasiz, ahamiyatsiz, diqqatni jalb qilishga arziyasdek bir narsa deb qaralgani, va bunday qarashlar ashaddiy metafizik xarakterga ega bo`lsa-da, hayotda ancha keng tarqalganligini o`qtirib o`tishi zarur bo`ladi. Zero, bunday qarashlar o`z navbatida, hayotdagi ziddiyatlarni aniqlash, ularni tahlil qilish yo`llarini qidirish, taraqqiyot oldinga surgan ijtimoiy, ma`naviy-ahloqiy muammolarni o`rganish imkoniyatlarini cheklashini o`quvchilar yaxshi bilishlari kerak. Shuningdek, bunday sharoitda tanqidning ro`li ham amalda pasaya borishi, tanqid yo`qolgan joyda, hayot haqida erkin fikrlash yo`qolgan esa turg`unlik va tanazzulga yuz tutushini o`quvchilar anglab oladi. Darhaqiqat, bunday qarashlarga moyil tanqidchilar Abdulla Qahhorning salbiy hodisalarni qalamga olgani, hajviy asarlar yaratgani uchun savalashdi. Yana o`sha yillarda rasmiy tus olgan qarashlarga ko`ra, sotsialistik realizm, birinchi navbatda, hayotning yorqin, ijobiy tomonlarini tasvirlashi kerak. Bunday asarlarda ijobiy kuchlarning g`alabasi muqarrar ekani ko`rsatiladi, salbiy kuchlar esa, albatta, o`lib borayotgan, istiqboli yo`q kuchlar sifatida ko`rsatiladi. Bu qarashlarni biz ancha yalang`och tarzda bayon etayapmiz, albatta, o`z vaqtida ular bejirim nazariy liboslarda taqdim etilgan. Lekin bu liboslar ularning zamiridagi mahdudlikni, sxematizmga chorlashni, stereotip tafakkurni yashira olmagan.

Abdulla Qahhor hikoya janrining qonun-qoidalarini, spetsifikasini egallash ustida jiddiy ishlab, hajviy hikoyalarga ko`proq murojaat qilgan ekan, avval ta`kidlaganimizdek, buning muayyan sabablari bor, albatta. Birinchidan, hajviyot 30-yillarda ham adabiyotda eskilik sarqitlarini fosh qilishda, yangi insonni tarbiyalashda, yangicha yashash tarzini tasdiqlashda

muhim qurol bo'lib hizmat qilishda davom etgan. Garchi nazariyachilar jon-jahdlari bilan yopiqlik qozonni yopiqlicha qoldirishga, ya'ni hayotdagi salbiy narsalarni qalamga olmaslikka chaqirgan bo'lsalar-da, hayotning o'zi har qadamda hajviyot bobida paydo bo'lgan har bir iste'dodli asarni ishtiyoq bilan kutib olardi. Abdulla Qahhorni 30- yillarda hajviyotga undagangina emas, hatto majbur qilgan narsa ham, birinchi navbatda, ana shu ehtiyoj bo'lgan edi. Ikkinchidan esa yozuvchi iste'dodining o'ziga xosligi tufayli hajviyot bobida qalam tebratgan. Abdulla Qahhor hajviyotining eng muhim xususiyati shundaki, muallif qaysi illatni tanqid ob'ekti qilib olmasin, odamlardagi qaysi bir salbiy xususiyatni fosh etmasin, buning hammasini bir maqsadga – o'zbek xalqining hayotida yuz bergan ma'naviy o'zgarishlarni, ijtimoiy-madaniy siljishlarni tasdiqlash va rivojlanishiga to'g'anoq bo'lgan dog'larni yo'qotish maqsadiga bo'ysundiradi. Yangi hayot, yangicha madaniyat, yangi ahloq va yangi psixologiya egalari adibning hamma hajviy hikoyalarida salbiy qahramonlarning salbiyligini yanada chuqurroq ta'kidlaydigan fan vazifasini bajaradi. Ayrim hikoyalarida salbiy qahramonlar yangi hayot va yangi odamlar bilan bevosita to'qnashuvda fosh bo'ladilar. Masalan, «Mirza» hikoyasida «Inobatli mirzo» deb dong chiqargan Boqimirza yangi hayot bilan to'qnashadi. Turgan shaharida mirzolik bilan kuni o'tmay qolgach, boshqa shaharga – uzoq qarindoshinikiga boradi. Ammo ma'lum bo'ladiki, bu yerda ham mirzodan boshqa savodsiz odam yo'q ekan. Yangi hayot mirzolarni bir chetga surib qo'yib, mislsiz sur'at bilan o'sib ketipti. «Jonfig'on» bilan «Qizlar» hikoyasida ham xuddi shunday manzarani ko'ramiz. «Qizlar» hikoyasidagi Nurmatjonning otasi katta eshon o'tgan. Zamonlar o'zgarib, eshonlarning qadri ketgach, Nurmatjon zamonga moslashib, bir amallab tirikchiligini o'tkazadi. Familiyasini domovoyga «Toshxo'jaev» deb emas, «Toshev» deb yozdiradi, o'zi xotin-qizlarning ochilishiga, ishlashiga o'lguday qarshi, lekin ishlaydigan xotin olishga rozi. Negaki, zamon unga boqmayapti, hamma qizlar oila qurish masalalaridan zarracha xavotir olmay, biri o'qishga, yana biri ishga kirib ketyapti. Bunaqa ahvolda «ishlagan xotinni olmayman»

deb o'tiraversa bo'lmayd. Gadoy arazlasa, to'rvasiga zarar. Shundoq bo'lgandan keyin Nurmatjon ishlaydigan xotin olishning rivoyatinitham topadi «husn chini tovoq, qozisi bilan bo'lsa yana ham yaxshi». Shunisi qiziqki, bu rivoyat masalani yana Nurmatjon foydasiga hal qiladi. Xullas, zamonga moslashib olgan Nurmatjon hayot haqida, odamlar to'g'risida hamon eski tasavvur bilan yashaydi, to'g'rirog'i, u tasavvurlardan vox kechib, hayotga sog'lom fikr bilan nazar tashlashni, uyqudan uyg'onishni istamaydi. U bir zamonlar otasiga nazir qilingan Karomatxon bilan Adolatxonni hamon o'ziniki hisoblab, ularga uylanish rejalarini tuzadi. Holbuki, qizlar buni uxlab, tushida ham ko'rmagan. Ularning biri zavod direktorii, ikkinchisi – ximik injener. Yangi hayot Nurmatjonning o'zini ham o'ta kulgili ahvolga solib qo'ygan. Anglashiladiki, badiiy asar mazmuni va shaklidagi qonuniyatlar o'z navbatida mavzu va g'oyada ham, tasvir vazifasi, tuyg'ular tarbiyasi qo'yiladi. Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki – tashqi dunyosida sezib onglaganlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozuvchi uchun mavzu bo'larlik narsalardir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hayot va insonga ta'luqli barcha hodisalar adabiyotning mavzuiga asosdir. Shu asosning eng mayda zarrachasida ham inson bilishi lozim bo'lgan, uning yashashi uchun zarur hikmatlar, sirlar, mo'jizalar mujassamdir.

Xullas, A.Qahhorning «O'jar», «Adabiyot muallimi», »San'atkor» kabi hikoyalarda yangi hayotning qudratli oqimi o'ziga xos yo'l bilan ochilgan. Adibning hajviy hikoyalarida turli-tuman ijtimoiy illatlarni ishonarli satirik tiplarda mujassamlashtirar ekan, shu illatlarni qoralash, qusurlarni rad etish bilan cheklanmaydi. U, Ayni chog'da, yangi hayotning o'ziga xos qadamini ham tasdiqlaydi. Bu qadam turli shakllarda, turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Adib ularni o'z hikoyalarida shunday bir omil qilib oladiki, uning yordamida salbiy kuchlarning zamiridagi kulgi to'la-to'kis ifodalanadi. Abdulla Qahhor hajviy hikoyalarida satirik xarakterlar juda hayotiy bo'lib, yorqin va qabariq chizilgandir. To'g'ri, yozuvchi hech qaysi hikoyada

qahramon xarakterini butun tarixi bilan ko'rsatmaydi, uning takomil jarayoni bilan tanishtirmaydi. Shuningdek, qahramonlar psixologiyasini chizganda, aniqrog'i, ularning xatti-harakatini psixologik jihatdan dalillaganda muallif biror o'rinda ortiqcha tafsilot, noo'rin cheklanishlarga yo'l qo'ymaydi. U, asosan, biror konkret detal yordamida yoxud bitta-ikkita harakat orqali xarakterni ochadi, hatto, ayrim hikoyalarda uch-to'rt ibora orqali berilgan nutq yordamida tugal bir qiyofaga ega bo'lgan hayotiy xarakter chiziladi. Adib yaratgan satirik obrazlarda portret ham muhim o'rin tutadi. U, ayniqsak, psixologik portretdan keng foydalanadi. Keling, yozuvchining «Munofiq» hikoyasida qahramon portreti qanday chizilganiga ahamiyat beraylik: «U kattakon ketmon nusxa shapkasini stulga qo'yib, bir quchoq material bilan minbarga chiqdi, enlik kamarini tortib bog'lab, «mana endi so'zlash payti keldi» deganday majlis ahliga bir nazar tashladi-yu so'z boshladi. Sirasini aytganda, bu parchani tom ma'noda tugal deb bo'lmaydi. U tepakalmi yo jingalakmi, yuzini ajin bosganmi yo hali silliq, qip-qizilmi, burni, qoshi, quloqlari qanaqa, gavdasi miqtimi, ozg'inmi? Hikoyada bularning hech qaysisi tilga olinmaydi. Bundan keyin hikoya davomida ham uning tashqi qiyofasi haqida biron narsa demaydi. Biroq shunga qaramay, o'quvchi Nizomiddinovning qiyofasini ko'z oldiga keltiradi, uning qanaqa odamligi haqida tugal tasavvur hosil qiladi. Yozuvchi qahramon portretini to'liq chizishni maqsad qilib qo'ymagan – mukammal va batafsil portretni hikoya ko'tara olmas ham edi. Shuning uchun u kitobxon diqqatini Nizomiddinov qiyofasidagi ikkita narsaga – uning ketmon nusxa shapkasi-yu, enlik kamariga jalb qiladi. Shunisi muhimki, shapka ham kamar ham faqat obrazni jonlantirish uchun, uning qiyofasiga konkretlik baxsh etish uchungina xizmat qilmaydi. Ayni chog'da bu detallar satirik tipning ijtimoiy mohiyatini ta'kidlovchi muhim vosita hamdir. Abdulla Qahhor hikoyada Nizomiddinovning tashqi qiyofasidagi ikkita detalni ta'kidlash orqali uning xarakteridagi ana shu jihatlarga ishora qilyapti. Shunisi diqqatga loyiqki, «Munofiq» hikoyasida ham, boshqa hajviy hikoyalarda ham adib janr talablariga qat'iy amal qiladi. Biron

o`rinda portret chizishda batafsillikka berilmay, eng muhim detallar orqaligina qahramonning qiyofasini ochadi. Tabiiyki, yozuvchi shunday ixcham portretning o`zi bilan kifoyalansa, obraz yetarli darajada ochilmay ochilmay qolishi mumkin edi. Shuning uchun u hikoya davomida Nizomiddinovning nutqini ham berib boradi. Natijada nutqiy xarakteristika qahramonning kim ekanini to`la ko`rsatadi-da, uning mohiyatini ochishda muhim badiiy vositaga aylanadi. U balandparvoz gaplarni yoqtiradi, hamma narsaga siyosiy tus berishga harakat qiladi, qizil gaplar bilan o`zining demagogligini niqoblaydi. Satirik xarakter yaratishdagi bunday printsip «Adabiyot muallimi», «O`jar», «San`atkor» kabi hikoyalarda ham etakchi o`rin tutadi. Abdulla Qahhor hikoyalarining muvaffaqiyatini ta`minlagan muhim omillardan yana biri – har qaysi hikoya syujeti va kompozitsiyasini shu hikoyaning g`oyaviy mazmuniga moslab ishlanganidir. Biron hikoyada ortiqcha bayon, noo`rin tafsilot, keraksiz detal` yo`q, voqealar shitob bilan rivojlanadi, uning oqimida hech qanday sun`iylik, zo`rma-zo`rakilik sezilmaydi. Har qaysi hikoya ikki-uch epizoddan, ixcham lavhadan tashkil topgan bo`ladi.

Yozuvchi A.Qahhor ko`p hikoyalarida voqeani eng keskin nuqtadan boshlaydi va biron o`rinda dramatismni susaytirmagan holda voqeani nihoyasiga yetkazadi. Ayni chog`da ko`pgina hikoyalar kompozitsion qurilishda yozuvchi xalq ijodidan, birinchi navbatda, latifalardan foydalangani ko`rinadi. Ma`lumki, latifalar ko`pincha bir-ikki lavhadan iborat bo`ladi-yu, keyin biron jumladan ifodalangan yechim bilan tugaydi. Xuddi shu yechimda latifanining asosiy mag`izi, hikmati ifodalangan bo`ladi. Abdulla Qahhorning ko`pgina hajviy hikoyalari ham ana shunaqa kutilmagan yechimga ega. Ularda ham ba`zan hikoyaning asosiy g`oyasi ifodalanadi, ba`zan qahramon xarakterining so`nggi belgisi beriladi, ba`zan esa bu yechim benihoya teran bir yumor bilan jiddiylikni yakunlaydi. Nihoyat, Abdulla Qahhorning hikoyalarining tili g`oyat puxta ishlanganini, g`oyat rangdor va chiroyli ekanini qayd qilmoq kerak. To`g`ri, bu mavzu alohida tadqiq qilishga arziydigan, batafsil tahlil qilib, chuqur umumlashmalar chiqarish uchun yetarli material beradigan mavzu.

Mavridi kelganda adibning badiiy til bobidagi mahorati masalasiga kengroq to'xtaymiz. Hozircha esa hikoyalarning tili haqida bir-ikkita umumiyroq mulohaza bilan cheklanamiz. Ma'lumki, realistik metod adabiyotning asosiy materiali bo'lmish tildan ham realistik printsiplar asosida foydalanishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, xalqning jonli tili uzoq, kitobiy, balandparvoz va sun'iy til bilan hayotiy va haqqoniy xarakterlar chizib bo'lmaydi, ularning ichki dunyosini, psixologiyasini aniq ifodalash qiyin, nuqtai xarakteristikalar g'ayri-tabiiy chiqadi. Abdulla Qahhor ijodi davomida, ayniqsa, ustoz Chexovning maktabida tahsil ko'rib chiqqandan keyin asarlarida tilning hayotiylikiga intildi. Buni ijodining yetakchi printsiplaridan biri darajasiga ko'tardi va bu printsipga izchillik bilan amal qildi. Abdulla Qahhor hikoyalarining tili sodda va tabiiy. Biroq bu soddalik shunchaki jo'nlik emas, aksincha u juda katta mehnat evaziga qo'lga kiritiladi. Hikoyalarda muallif nutqi huddi xalqning jonli tiliday ravon oqadi. Buning ustiga har bir jumla fikrni g'oyat tiniq ifodalashga xizmat qiladi. Ammo tilda soddalik va tabiiylik bilangina yuksak badiiylikka erishib bo'lmaydi. Shuning uchun adib tilda ham puxta obrazlilikka intiladi. Bu obrazlilik badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish evaziga maydonga keladi. Yozuvchi xalq maqollari va materiallarini ham, turli ideomatik birikmalaridan ham keng foydalanadi. Personajlar nutqini ishlashda ham yozuvchi qahramon aytayotgan har bir jumlaning uning psixologik holatiga, madaniy saviyasiga, bilimiga, xarakteriga mos qilib tuzadi. Bularning hammasi asar mazmunini o'quvchiga yetkazibgina qolmaydi, balki jonli, konkret manzaralar yaratadi, qahramonlarning ichki dunyosini ochishga yordam beradi. O'quvchida muayyan emotsional holat uyg'otadi va unga hadsiz estetik zavq bag'ishlaydi. Shunday qilib, maktabda yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi haqida o'zlashtirilgan adabiy – nazariy ma'lumotlar badiiy tahlil jarayonida takrorlanib, murakkablashib boradi. Shu bilan birga, bu davrda adabiy qahramon, hikoya kabi tushunchalar kengroq o'rganiladi. Asosan o'quvchilarning adabiyotda inson va uning ichki olami, xatti-harakatining

badiiy aks ettirilishi ustida olib borgan kuzatishlari nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Natijada o`quvchilar hayotda inson turli holatlarga tushganligi va turlicha ijtimoiy munosabatlarga duch kelganligi uchun yozuvchilar yaratgan asarlarida o`zlari ko`zlagan g`oyani ifodalovchi turli kompozitsiyalar va syujetlar yaratganliklarini anglab yetadilar. Badiiy asarda insonning asosiy qahramon sifatida tasvirlanishi barcha badiiy asarlar tahliliga nazariy asos bo`lishi kerak. O`quvchilar dasturda belgilangan adabiy matnlarni o`qish va o`rgatish jarayonida adabiy asarning tasvir manbai hayot, tabiat va jamiyat hodisalari ekanini, biroq bu tasvir markazida inson, uning hayoti, xatti-harakatlari, his-tuyg`ulari, kurashi, quvonchi va dard-alamlari turishini ravshan idrok etishlari lozim. Biz ishimizning birinchi bo`limi epik asar kompozitsiyasi haqida nazariy ma`lumotlar berish, tushuntirish, o`rgatish yo`llari orqali uning metodikasi bilan tanishtirib o`tdik. Haqiqatan ham, mavzu va g`oya, obraz va xarakter, syujet va kompozitsiya, badiiy til va uslub, tur va janrlar kabi vositalar, asarning mukammalligini, badiiyligini ta`minlashga xizmat qiladilar. Demak, adabiyot haqidagi tushuncha va mushohadalar to`liq bo`lishi uchun aniq badiiy asarning tahlilini zaruratga aylantiradi, ana shu asos badiiylilikning qonuniyatlarini yanada ravshanlashtiradi, badiiy ijodning biz hozirgacha e`tibor qilmagan mag`izli xususiyatlarini ayonlashtiradi. Maktab o`quv dasturi va darsliklarida mana shu jihatlari haqida ham aytib o`tilsa, yosh avlod tarbiyasida, ularga yaxshi, estetik mazmuni kuchli hikoyalarni o`zlashtirishlariga, shu tariqa ularning adabiyotga, ona xalqimizning ajoiyb fazilatlariga nisbatan hurmat va muhabbatini orttirgan bo`lar edi.

II B O B

Abdulla Qahhor asarlarining o`quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.

Ko`pchilik kabi men ham,- deb yozadi Abdulla Qahhor, - «yozuvchilik» nimaligini, shaxsiy tajriba, taassurotlar adabiy asar uchun nihoyatda qimmatli material bo`lishini tushunib olgunimga qadar ancha ovvora bo`lganman. Buni bilib olganimdan keyin bolalik chog`imda ko`rganim, odamlar, yoshligimda sodir bo`lgan voqea-hodisalar boshqacha bo`lib ko`rindi. O`tmish chuqur yerto`laldagi sharob singari xotirada tiniydi, oradan qancha vaqt o`tsa, sharob shuncha tiniq va kuchli bo`lganiday, yoshlikda ko`rgan-kechirganlar eng sof va kuchli xotiralar bo`lib, umrbod esdan chiqmaydi. O`tmishdagi ana shu taassurotlarim keyinchalik, ko`pgina hikoyalarim uchun asos, yirik asarlarimga epizodlar bo`lib xizmat qildi»<sup>2</sup>. Adabiyot va san`at sirlarini yetarli tushunmagan o`quvchi real hayot bilan poetik reallikni, tabiat bilan san`atni, boshdan kechirilgan bilan tasvirlangan kechinmaning farqiga bormasligi, hayotni adabiyot bilan baravarlashtirish mumkin. Shuning uchun ham real hayot bilan poetik ijodning munosabatlari muammosini tekshirish badiiy ijod jarayonini to`g`ri va asosli tushunishga olib kelganidek, yozuvchilar ijodiy laboratoriyasining ba`zi qirralarini ham tahlil qilishga imkon beradi. Ba`zi o`quvchilar o`ylagandek, yozuvchilik hayotimizda, turmushimizda ro`y beruvchi hamma narsalar haqida hikoya qilish bilan cheklanmaydi. Agar Shunday bo`lganda, bundan oson ish bo`lmasdi. Bir kunda yuz beradigan sanoqsiz voqea-hodisalardan bir nechta kitob yozish mumkin bo`lardi. Yozilganda ham bu kitoblar turmushning va odamlarning kuchsiz, hech kimni qiziqtiramaydigan oddiy nusxasi bo`lib qolaverardi. Unda hayotning muhim va keraksiz, zaruriy va tasodifiy, birinchi va yuzinchi darajali narsalari aralash-quralash holida bo`lardiki, o`qimoqchi bo`lgan odam zerikib «o`lardi». «Olim, -deydi I.Goncharov, hech narsani yaratmaydi, balki tabiatda tayyor va yashirin haqiqatni ochadi. San`atkor esa haqiqatga o`xshash narsani yaratadi, ya`ni u kuzatgan haqiqat fantaziyasida aksini topadi va bu aksni o`z asariga olib o`tadi. Demak, badiiy haqiqat va hayot haqiqati bir xil narsa emas. Turmush

² A.Qahhor.Hayot hodisasidan badiiy to`qimaga: «Adabiyotimiz avtobiografiyasi»,T., 1973, 220-225-betlar

hayotdan butunicha san`at asariga olib kirilsa, u hayotiy haqqoniyligini yo`qotadi va badiiy haqiqat ham bo`lmaydi. San`atkor to`ppa-to`g`ri tabiat va hayotdan yozmaydi, balki unga haqiqatan o`xshash qilib yaratadi. Va xuddi ana shunda ijod jarayonining mohiyati mujassamlashtirilgan...». Yozuvchi hayot haqiqatiga o`xshash narsani yaratish uchun, hayotiy fakt va hodisalarni o`zining ruhiy laboratoriyasida «qaynatish», ishlashi, sintezlashtirishi, ya`ni tasavvuri, xayoli, tajribasi, qalbi, dunyoqarashi, tabiati bilan boyitgan va muayyan mavzuga, g`oyaga xizmat qiluvchi eng zarur detallarni, xarakterli va kerakli fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan hayotni yaratishi lozim. Ana shundagina san`atkor, uydirmalar ijodkori-odamlarni xudo, tabiat yoki tarix yaratganidan ko`ra o`loroq, mislsiz darajada go`zal qilib tasvirlay oladi. Demak, Abdulla Qahhor aytganidek, badiiy haqiqat hayot haqiqatini ko`ngil prizmasidan o`tkazish, uni his qilish, unga o`ylab yurgan gaplaringni singdirish, tilak va ideallaringni qo`shib ifodalash bilan yuzaga keladi. Badiiy haqiqatni tug`diradigan, mahalla komissiyasining bunga ishoninglar degan mazmundagi spravkasiga hojat qolmaydigan fakt va uydirma me`yorini topishning mushkulligi ham xuddi ana shundadir. Xuddi shuningdek, A.Qahhor hikoyalarining yuzaga kelishida adibning o`z ko`zi bilan ko`rgan voqealari, xotirasida o`chmas iz qoldirgan o`tmish va bularni aytish uchun yetarli tajriba to`plangani asos bo`lgan. Ko`rinadiki, badiiy haqiqatning zaminida hamma vaqt hayotiy tajriba, real faktlar, real kechinmalar yotadi. Lekin, uning badiiyo to`qima bilan uyg`unligi qay darajada bo`lishi kerak?

Abdulla Qahhor yozadi: «Bemor» degan hikoyamda tasvirlangan voqeaga o`xshash hodisa o`z boshimdan o`tgan. O`n uchinchi yillar bo`lsa kerak, besh yashar bola edim. Qo`qonga yaqin Yaypan qishlog`ida turardik. Onamning oy-kuni yaqinlashib, uni dard tutardi chog`i, qorong`i kulbimiz ichida ko`rpa-to`shak qilib yotar, ichkaridan uning bo`g`iq ingrashi, jonini qo`yarga joy topolmay qichqirishi eshitilardi. Yaypan katta qishloq edi, biroq u yerda vrach yo`q, tibbiy yordam nima ekanligini xayolimizga ham

keltirolmasdik. Bunday hollarda qo`ni-qo`shnilarnikiga yugirilar, keksaroq xotinlarni aytib chiqilar, uning doyalikni uddalay olisholmasligi bilang hech kimning ishi bo`lmas, keksa bo`lsa, bu sohada ko`zi pishgan bo`lsa bas, har qanday kampir bu ishga yarayverardi. Biz Yaypanga yaqinda ko`chib kelgan, u yerda qarindosh-urug`larimiz yo`q edi, shu sababli otam qo`shni xotinni chaqirib chiqdi. Xotin kelib, ayam yotgan uyga kirib ketdi. Kech kirdi. Meni uyqu bosa boshladi. Yonimda o`tirgan otam birdan o`rnidan turdi. Ko`zimni ochdim, tepamda haligi qo`shni xotin turardi. «Tinchlikmi?» - hovliqib so`radi otam. » tinchlik, lekin qinalayapti, bechora.. «Kampir jim bo`lib qoldi, keyin menga ishora qildi.» Bolaga ayting, xudodan so`rasin, bolaning gunohi yo`q, uning duosi tez ijobat bo`lib, xudoyim yo`l bersa, sho`rlik omon-eson qutulsa ajab emas.. «Otam menga tomon engashdi:» E xudo, ayamga najot ber» degin, dedi. Otam qo`rquv va jahl aralash meni qistardi: «Bo`l tez, nega imillaysan». Duo qila boshladim, bu orada bir-ikki yig`lab ham oldim, keyin uxlab qolibman. Erta bilan uyg`onsam ayamning ko`zi yoribdi. Hikoyada birmuncha boshqacharoq hayot tasvirlangan. Bir xotin og`ir dard bilan uzoq vaqt yotib qoladi-yu, eri uni doktorga boqizishga qurbi yetmaydi va arzonarovroq haq oladigan mulla, tabib, kinnachiga borishiga, keyin esa, eng so`nggi chora sifatida, qo`shni kampirning begunoh go`dakning saharda turib, to`rt yoshli qizchasini uyg`otadi va uyqu g`ashligi bilan yig`lab turgan qiziga duo o`rgatib, uni takrorlashga majbur qiladi: «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..» deydi. Hayotda Yaypanda vrach yo`q, tibbiy yorddam nimaligini hayolga keltira olmasalar, hikoyada «Doktorxona deganda Sotiboldining ko`z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so`mlik pul kelar edi. Hayotda Abdullaning otasi - temirchi bo`lsa, hikoyada Sotiboldi- Abdug`aniboyning batragi, xonaki bir kasb egasi, qarzdor kambag`al. «Bemor» hikoyasida yozuvchining g`oyaviy-badiiy maqsadi: o`tmish hayotning fojialarga to`la achiq taqdirini, nochor ahvolini ko`rsatish vositasida ijtimoiy tengsizlikni fosh etishdir. Hikoyada hamma unsurlar ana shu maqsadga bo`ysundiriladi, ortiqcha narsalar tushirib qoldiriladi, yetmagani xayolan

to'ldiriladi. Shu asosda Sotiboldi xotining og'rib qolishi, bemorning ko'p azoblar tortishi va jaholat botqog'ida yashaytgan to'rt yashar qizchasining ohu-zoriga qaramay vafot etishi, o'tmishning achchiq bir tugal lavhasi yaratiladi.

Yuqorida aytganimizdek, yozuvchining vazifasi hayotning aynan nusxasini berish emas, balki bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni tasvirlash ekan, yozuvchi o'z boshidan kechirgan va ko'rgan, eshitgan voqealarni ong va qalb prizmasidan o'tkazadi. O'sha davr sharoitida yetim qolish hech gap emasligini, judolik dahshatlari va oqibatlarini hayolan tasavvur qilar ekan, kambag'al, nihoyatda og'ir turmush kechirgan Sotiboldi, uning xotini va qizchasining fojiasi, achchiq taqdiri jonlanadi, ko'z oldiga keladi. Yozuvchi hayot faktlarini o'zgartsa-da, lekin bolalikning sof va beg'ubor taasurotlari, hayotiy tajribalari sirasida tasvirlanayotgan hayotning jonlantirilishi tasvirning hissiyligi, go'zalligini ta'minlaydi. Ana shu hayotning xolis va samimiy tasviri umumlashma darajasiga ko'tariladi va bizda o'tmishdagi ijtimoiy tengsizlikka qarshi kuchli nafratni uyg'otadi. Abdulla Qahhorning «Anor», «Ko'r ko'zning ochilishi», «Ming bir jon» hikoyalari ham xuddi shu usulda yaratilgandir. Demak, bu xil usulda yaratilgan asarlar san'atkor obraz yoki syujetni yaratar ekan, u to'lig'icha hayot haqiqatiga mos bo'lmaydi. Masalan, «Bemor» da Sotiboldining xotini o'ladi, hayotda esa A.Qahhorning ayasi ko'zi yoriydi. «Ming bir jon» da Mastura tuzalib ketadi, hayotda To'raxon ayaning qizi vafot etadi. Yozuvchi hayotning konkret haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish jarayonida, uni ongli ravishda «buzadi», «adolat yuzasidan ish tutadi». Bu bilan birinchi hikoyada ijtimoiy tengsizlik hukm surgan jamiyat kambag'al, nochor, bemor ayolni o'limga mahkum etishini ko'rsatsa, ikkinchi hikoyada insonning hayotga muhabbati beqiyos darajada qudratli kuchga egaligini chuqur aks ettiradi. Yozuvchi, umuman shu usulda yaratilgan asarlarda, xususan ikki hikoyada ham tasavvur va taasurotlarning hamma ma'lumotlari xotirasining ma'lum chuqurliklaridan kelib chiqayotganini sezadi

va yaxlit, tugallik kasb etgan asarning lavhalari qanday faktlar va kuzatuvlar asosida yuzaga kelganligini ko`rsata oladi.

Boshqacha usul ham mavjud. Bu usulda yaratilgan asarlarda qachonlardir olingan kechinma, taasurotlarga nisbatan tasavvur erkin harakat qiladi, u qachondir bilingan va boshdan kechirilgan narsadan, garchi uning konkret ko`rinishi, ob`ektiv haqiqat bo`lmasa ham yaxlit narsa yaratadi. Bu asardagi badiiy haqiqat hayot haqiqatiga shunchalik mos tushadiki, go`yo kashfiyotdek tuyuladi. Maktab o`quvchilariga buni mukammalroq tushuntirish uchun yana A.Qahorning ijodiy laboratoriyasiga qaytamiz: «Mening «O`g`ri» degan hikoyam 1936-yili, xuddi Chexov asarlarini berilib o`qib yurgan davrimda yozilgan edi. Hikoya bolaligimda qurshab olgan turmush, eski davrni ko`rsatishga bag`ishlangan. Ammo men «Anor» dagi Babar, «Bemor» dagi o`zimning onam singari, bu hikoyada «model`» xizmatini o`tagan odamni ko`rgan, voqeaning shohidi bo`lgan emasman. Bu kartinani, garchi uni yozishda xotiramda qolgan va yon daftarimdan olingan ba`zi tasvir vositalari hamda detallardan foydalangan bo`lsam ham, o`zimcha tasavvur qilganman, o`ylab chiqarganman. Gap bu safar xotira daftaridan olingan ana shu detallar ustida ketayapti. Ulardan xarakterlar qad ko`tardi. Bu esa prozada detalning ahamiyati va imkoniyati yuzasidan menga Chexov tomonidan berilgan ta`limning nihoyatda muhim samarasi edi. Kunlarning birida xotira daftarimga xalqning hazil-mutoiybalaridan «Yo`qolmasdan ilgari bormidi?» degan iborani yozib qo`ydim. «O`g`ri» hikoyamni yozayotganimida shu ish berib qoldi. Shunchaki beg`araz hazil uchun aytiladigan bu iborani kekxa dehqon ho`kizni o`g`irlanganidan shikoyat qilib borganda aminning tilidan ayttingan edim, o`tkir piching ma`no kasb etdi. Mening ixtiyorimdan tashqari ijtimoiy umumlashgan kuchga ega bo`ldi, ayni chog`da, individual shaxs xarakterini ochib yubordi. Bu hikoyani men boshdan-oyoq detallar, xarakterli savol-javob asosiga qurganman. Keyin hayotda o`rni yo`q kekxa dehqon, uning ustidan mazax qiluvchi, farazlarim samarasi bo`lgan amaldorlar ham men real hayotdan ko`chirib yozgan ilgarigi qahramonlarga qaraganda birmuncha

jonliroq ekanligini ko`rib hayratda qoldim va sevinib ketdim»<sup>3</sup>. Muallifning ushbu guvohligidan ham ko`rinayaptiki, A.Qahhor hayotda Qobil boboni va xo`kizning yo`qolishi natijasida ellikboshi, amin, tilmoch, pristavlar bilan bo`lgan achchiq sarguzashtini – kartina «model»ining shohidi bo`lgan emas, o`zicha tasavvur qilgan, o`ylab chiqargan. Hayotda aynan shu voqea bo`lgan bo`lmasada, lekin o`tmishda Qobil bobo singari qadr-qimmatini yerga urilgan, boshiga «tashvish» tushgan kambag`allarning el-yurt ustunlari tomonidan so`nggi bor-budigacha talon-taroj qilinishi, «otning o`limi – itning bayrami» ga aylanishi hodisasi minglab oddiy kishilar taqdiriga hamohang ekanligi ob`ektiv haqiqat edi. Shuning uchun ham A.Qahhorning hikoyada yaratgan badiiy haqiqati real hayot haqiqatiga shunchalik xos va mos keladiki, bundan yozuvchi sevinadi, hayratga tushadi. Ikkala usulda ham yaratilgan asarlardagi badiiy haqiqatga xotira materiali, shaxsiy va ijodiy tajriba asosdir. Bizga kashfiyotdek tuyulgan obrazlar shaxsiy kuzatishlarga, kechinmalarga va aniq tasavvurlarga asoslangandir. Agar birinchi usulda hamma narsa ongli ravishda yuzaga kelsa va badiiy haqiqat tajriba bilan isbotlansa, ikkinchi usulda go`yo u badiiy haqiqatni «o`ylab chiqaradi», shaxsiy tajribaning ba`zi qirralaridan detalidan foydalanilsa ham, obraz va voqealarni kuzatmasdan, tasavvur orqali jonlantiradi.

A.Qahhorning Vatan urushi yillarida yozilgan hikoyalari orasida ancha yuksak saviyada yozilgan hikoyalari ham bor. Masalan, «Ko`k konvert», «Kampirlar sim qoqdi» hikoyalarida biz janr siru asrorini puxta egallagan, xalq tilining jami nafisliklarini puxta o`zlashtirgan, qalami ravon adibning shakllangan uslubini yaqqol sezib turamiz. Adib har ikkala hikoyada ham o`ziga xos tarzda xarakter yaratadi. U voqealarning keng bayonini bermaydi, shuningdek, qahramon xarakterini ham tadrijiy ravishda, boshidan kechganlarini batafsil hikoya qilish asosida ochmaydi. Adib ko`proq shtrixlarga murojaat qiladi, ular yordamida qahramon qiyofasini tugal

³ A.Qahhor.Hayot hodisasidan badiiy to`qimaga: «Adabiyotimiz avtobiografiyasi»,T., 1973, 214-215-betlar

ravishda ko`z o`ngimizda gavdalandiradi. «Ko`k konvert» hikoyasining qahramoni Erkaboy Mirzaev gvardiyachi serjant, u bir necha gospitalda davolanadi. Adib hikoyaning boshidayoq qahramonning ahvoli, ruhiyatini chuqur lirizm bilan tasvirlaydi. Gospital – shu yerda, O`zbekistonda. Erkaboy, albatta, vatanini sog`ingan... Ammo uning sog`inchi haqida bir og`iz gap aytmaydi, aniq milliy ranga ega bo`lgan konkret detallar orqali kayfiyatini ifodalaydi: «Gvardiyachi serjant Erkaboy Mirzaev gospitalning deraza-sidan ko`chaga qarab, hayol surib o`tirgan edi, birov bir savat shaftoli olib o`tdi. Har shaftoliki, palaxmonga solib otsang, paxsa devorni ag`adradi. Qani endi shundan to`rttasini uzatib yuborsang! Sekin po`stini artsang, og`zingga solib, tiling bilan tanglayinga bossang-u, suvini qult-qult yutsang». Hikoya davomida adib bevosita jang maydonini ko`rsatmaydi. Erkaboy Mirzaevning fashistlarga qarshi kurashda qanday qahramonliklar ko`rsatganini ta`riflamaydi, faqat sovg`a olganini, sovg`a ichida « G`arbiy Front, o`ntadan ortiq fashistni o`ldirgan qora qosh, qora ko`z yigitga tegsin» degan yozuv borligini aytadi. Shu detalning o`zi bilan adib Mirzaevning boshqa miglab soldatlari kabi jasur, vatanparvar jangchi ekanini ko`rsatishga muvaffaq bo`lgan. Hikoyada yana bir obraz bor. Bu – Erkaboy Mirzaevga sovg`a jo`natgan o`zbek qizi Latofatxon. Adib uning ham na portretini, na tarjimai xolini tasvirlaydi, lekin shunday detallar topadiki, natijada ko`z o`ngimizda urush yillarida eng yaxshi insoniy sifatlari namoyon bo`lgan, avvalo chinakam vatanparvar ekanini ko`rsatgan o`zbek ayolining yorqin siymosi gavdalanadi. Yozuvchi Latofatxon obrazini chizishda ham har qanday soxtalikdan, sun`iylikdan, ortiqcha mubog`alardan qochadi, faqat ikkita epizod orqaligina uning xarakterini ochadi. Bu detallarning birinchisi shuki, u frontdagi jangchilarga sovg`a yuborgan. Bu harakat urush yillarida juda keng tarqalgan edi. To`g`ri, sovg`alar unchalik salmoqli, to`kin bo`lmas edi. Ularda ko`pincha tamaki, papiros, qog`oz, qalam, turshak, mayiz, dastro`molga o`xshash mayda-chuyda narsalar bo`lardi. Biroq har bir sovg`ada, albatta, ikki enlik xat bo`lardi. Xat esa jangchiga omonlik, omad tilab aytilgan, jasoratga undovchi dil

soʻzlari...Bu sodda, bir oz dagʻal tuzilgan, samimiy iboralar juda ogʻir sharoitda jang qilayotgan, yurtini, qarindosh-urugʻlarini sogʻingan askarga cheksiz ruhiy madad bagʻishlagani shubhasizdir. Xullas, Latofatxon kamtarona ishlari bilan jangchilar qalbiga alanga solayotgan qiz. Shunisi ham borki, u faqat Erkaboy Mirzaevgagina tuhfa yuborgan emas. Onasining aytishicha, askarlar komandirlardan yuzdan ortiq xat kelgan. Demak, Latofatxon frontga – askarlarga muntazam xatlar, sovgʻa-salomlar yoʻllab turgan. Latofatxon xarakterini ochishda katta roʻl oʻynaydigan ikkinchi detalʼ – Mirzaevning uni qidirishidir. Erkaboy Mirzaev istihola bilan, ikkilana-ikkilana qizning uyiga boradi. Eshikni bir kampir ochadi. Begona odamni koʻrib oʻzini yoʻqotib qoʻygan kampir bir lahzada uning xarbiy kiyimidan jangchi ekanini biladi, unga samimiy iltifot koʻrsatadi: «Voy, qomatingdan onang oʻrgilsin! Oyogʻingga nima qildi? Kir, kir tezroq! Bu yoqqa oʻrgilay.. Hoy, qizim, qayoqda qolding? Samovar qoʻy! Akang urushtan keptilar.. «Shu birgina monologning oʻzidayoq adib xalqimizning urush yillarida namoyon boʻlgan ajoiyb fazilatini yaxshi ifodalagan.Oʻsha kezlarda front orqasidagilar, ayniqsa, qariyalar uchun hammasini oʻz oʻgʻliday, eng yaqin odamiday kutib olar, qoʻlidan kelsa, dasturxon yozar, boʻlmasa, yaxshi soʻzlar bilan siylardi.

Erkaboy Mirzaev Latofatxonni topolmaydi. Gʻayrati ichiga sigʻmaydigan, fikriyodi urushda boʻlgan Latofatxon onasining «ot minolmasang, zambarak otolmasang, nima qilasan urushda» deb koyinganiga qaramay, allaqachon frontga hamshira boʻlib ketgan ekan. Koʻngliga ancha pinhoniyl tilaklarni tugib kelgan Mirzaev gospitalga qaytib, xat yozib, Latofatxonnikiga oʻxshash koʻk konvertga solib joʻnatadi. Hikoya «bu xatning mazmunini birovga aytib bermaydi» degan ibora bilan tugaydi. Bu ibora ham hikoya samimiyligini chuqurlashtiradi, estetik jozibasini kuchaytiradi. Shu tarzda Abdulla Qahhor zohiran qaraganda oddiygina koʻringan, Biron murakkabligi bilan ajralib turmaydigan qisqagina hikoyada muvafakqqiyatli topilgan detallar yordamida zamondoshlarining xarakterini tugal ochib bera olgan, ularning

vatanparvarligini dabdabasiz, samimiy ifodalagan. Bu qahramonlar ajoyib insoniy fazilatlarga ega bo'lgani uchun ham yashashda davom etmoqda.

«Kampirlar sim qoqdi» hikoyasi ham ana shunday mahorat bilan yozilgan. Bu hikoyada ham urush yillarida hayotda ko'p uchragan oddiy bir voqea tasvirlanadi—allaqachon mehnat faoliyatiga yakun yasab, farog'atli hordiqqa chiqqan besh kampir kolxoz raisining taklifi bilan ko'pchilikka madad bo'lsin deya to'rt quti pilla tutishadi va tumanda birinchi bo'lib, har quti urug'dan pilla olishadi. Yozuvchi mana oddiygina hayotiy faktni san'at faktiga aylantiradi. Ayrim zamondoshlarining xotiralariga ko'ra Abdulla Qahhor urushning so'nggi yili xuddi shu voqeaga Toshkent atrofidagi kolxozlarning birida duch keladi. Bu o'rinda ham yozuvchining hayot faktigsha munosabati, obraz yaratish printsiplari e'tiborga loyiq. Adib faktni o'zgartirmaydi, qahramonlarni ham aslida qanday bo'lsa, shundayligicha oladi. Faqat ularning siymosini ko'rsatganda, bitta detaldan foydalanadi-yu, qiyofalarini ochadi-qo'yadi. Kolxoz raisi besh kampirni «xammasi yig'ilganda bita shaftoliga tishi o'tmaydi» deb ta'riflaydi. Xalq yumori bilan sug'orilgan ana shu obrazli ta'rifda biz kampirlarning yoshini xam, kuch-qudratini xam, rangi-ro'yini xam ko'rganday bo'lamiz, xayolatimiz yordamida ularning portretidagi yetishmay turgan chiziqlarni tasavvur qilamiz. Tabiiyki, kampirlar xarakterini yaratish uchun ularning jismoniy qiyofalarini ko'rsatish kifoya emas edi. Yozuvchining hikoyadan maqsadi ham boshqa. U ana shu «bitta shaftoliga tishi o'tmaydigan» kampirlarning ma'navii qudratini, vatanparvarligini ko'rsatmoqchi, sovet tuzumi tufayli ularning ongida paydo bo'lgan yangi belgilarni, muxim sifatlarni ochmoqchi. Biroq bu juda qiyin ish edi, chunki me'yorning jinday buzilishi, xayotiylik printsiptan jinday chekinish, qahramonlar tasvirida soxtalikka, yolg'on-yashiqqa yo'l qo'yish obrazni parchalab yuborar, uni ishontirish quvvatidan, ta'sir kuchidan maxrum qilar edi. Abdulla Kahhorning xarakter yaratish mahorati xuddi shu nuqtada yana ko'rinadi. Rais kampirlar xuziriga kelib, ulardan yordam berishni so'raydi, so'ng shu masalani muhokama qiluvchi majlisni ochadi. Kampirlardan sado

chiqmaydi, ular «majlis» suzini eshitib shoshib qolishadi. Nixoyat, «To`xta xolla ro`molining uchi bilan og`zini yopib bo`zargan xolda avval o`rtoqlariga, keyin raisga qaradi.

-Endi, o`glim, dabdurustdan majlis deding...asosan shu gapni o`zaro avval jo`n gaplashib, tiniqtirib olsag-u, keyin majlisga solsang bo`lar edi». Bu gaplarda, albatta, yumor bor va bu yumor kampirlar xarakteriga muayyan joziba baxsh etadi. Lekin gap faqat yumorda emas kampirning majlisga, munosabatida ularning xarakteridagi juda muhim bir hislat ifodalangan. Majlis ular uchun jamoa fikrini ifodalaydigan hodisa. Ko`pchilik ichida aytilgan gap subutli bo`lishi kerak. Undan qaytib bo`lmaydi. So`zing va ishing bir bo`lsagina sen o`z uyingda, o`z ishlash joyingda obro` – e`tibor topishing mumkin. Axir, bu yangi psixologiya namoyon bo`lishi emasmi? To`g`ri, bugungi kunda majlislarning avvalgi o`rni yo`q, ko`p o`rinlarda u quruq rasmiyatga aylanib qolgan, unda so`zlaydiganlar ham ko`pincha jamoa fikrini ifodalashdan ko`ra o`zining chechanligini namoyish qiladi. Ammo urush yillarida ahvol boshqacha edi. Abdulla Qahhor ana shu haqiqatni yaxshi ilg`agan va uning yordamida kmpirlar xarakterini g`oyat haqqoniy ifodalagan. Abdulla Qahhorning bu hikoyasi garchi adabiyotimizda yangi bir bob ochmagan bo`lsa-da, katta haqiqatlarni sodda shakllarda ifodalagani, qahramonlar xarakterini to`laqonli yaratgani bilan bugun ham qimmatini yo`qotmagan. Abdulla Qahhorning urush yillaridagi prozasida alohida o`rin tutuvchi asar «Asror» hikoyasidir. Hikoya o`sha kunlarning eng dolzarb mavzuida yozilgan bo`lib hamon tarovatini yo`qotgani yo`q. Hozir ham o`quvchida xuddi kecha yozilgan asarday chinakamiga zamonaviy muammolarga bag`ishlangan hikoyaday taasurol qoldiradi. Adib «Asror bobo» hikoyasida tom ma`nodagi xalq xarakterini yaratgan. Adib ulug` rus yozuvchisi Gogol haqida yozgan maqolasida uning ijodidan ko`p narsa o`rganganini, xususan, Asror bobo obrazini yaratishda uning ijodiy tajribasiga tayanganini ta`kidlaydi: «Gogolning Zehnimda umrbod qolib ketgan obrazlaridan biri Taras Bul`badir. Barvasta, baquvvat, irodasi temir, o`rtoqlariga

mehribon, dushmanga beomon bo'lgan bu chol ko'z oldimdan sira ketmaydi, hammavaqt xuddi yaqinginada ko'rganga o'xshab turaman. Urush yillarida chiqqan «Asror bobo» hikoyasini yozishda Taras Bul'ba obrazi menga ilhom berdi. Asror bobo kampiriga qalbini o'rtab turgan og'ir musibat - o'g'lining jangda halok bo'lganligi xabarini aytmay, yashirib yuradi, bu musibatning hamma dard-alamiga o'z qalbini tutib beradi. Bunda Asror boboga Taras Bul'ba chiziqlaridan birini berishga uringanligimni ko'rish mumkin». Haqiqatan ham Asror bobo obrazi bilan Taras Bul'ba o'rtasida muayyan uyg'unlik bor. Adib yuqorida ta'kidlagan yaqinlikdan tashqari, sinchiklab qaralsa, Asror boboning ham «irodasi temir, o'rtoqlariga mehribon, dushmanga beomon» ekanini ko'rish mumkin. Abdulla Qahhor Taras Bul'badan ilhomlanganda faqat shu tashqi belgilarni yaratibgina qo'yaqolmagan. Bizningcha, bu o'rinda muhimi shundaki, Abdulla Qahhor Gogolga ergashib, Asror bobo obrazida o'zbek xalqining eng muhim fazilatlarini, eng olijanob hislatlarini umumlashtirib berdi. Bu fazilatlar zamon va makondan tashqari turuvchi mavhum fazilatlar emas, ko'proq shu davrda tug'ilgan va shakllangan sifatlardir.

Adib qahramonlar xarakterini milliy o'ziga xos ranglarda ko'rsatar ekan, Biron o'rinda ularning shaniga maqtov gaplar aytmaydi, yoxud ularga qora bo'yoq surkamaydi. U realistik adabiyotning eng muhim printsiplaridan biriga qat'iy amal qiladi-hamma o'rinda o'zini panaga olib turib, qahramonga munosabatini oshkor aytmay qalam tebratadi va qahramonlarning harakatida yoxud dialoglar orqali ko'rsatadi. Shuning uchun ham ular har bir vaziyatda, har qaysi hayotiy kolliziyada tabiiy harakat qiladi. Biron joyda o'z xarakterining mantig'iga zid ish tutmaydi. Xullas, bularning bari birlashib, qahramonga tom ma'nodagi teran insoniy joziba ato etadi va shu joziba tufayli Asror bobo adabiyotimizning eng yorqin obrazlar qatoridan o'rin oldi. Hikoyada Asror bobo samovarchilik qilib, har kuni siyosiy tashviqot ishlarini olib borayotgani ko'rsatiladi. Uning ishlari shu qadar salmoqligi, unga katta baho berganlar» Asror bobo shu yerda turib, dushmanga o't qo'yayotibdi» deb

ta'kidlaganlar. Chindan ham Asror bobo ko'ragida o'ti bor. Shu o't tufayli u tinch turolmaydi, elu-yurt boshiga ish tushganda qariligiga qaramasdan qo'lidan kelgancha og'irni yengil qilishga ko'maklashadi. Asror bobo xarakteridagi juda muhim bir milliy xususiyati o'ta andishali odam. U tabiatan elu yurtidan tashqarida qolishni or deb biladi, ko'pchilik jiddiy ish bilan band bo'lganda bir chekkada tomoshabin bo'lib turishni uyat hisoblaydi. Mulohazakorlik, andisha – o'zbeklarning milliy xususiyati. Xuddi shu xususiyat tufayli ko'p odam huzur-halovatdan kechib ishning og'irini zimmasiga oladi, safning birinchi qatoriga o'tadi, qiyinchiliklar bo'g'in-bo'g'inlarini zirqiraatsa ham, ularni mardona yengishga harakat qiladi. Biroq Asror boboni harakatga undagan narsa faqat andisha emas. Biz, Ayni chog'da uning juda yuksak ong egasi ekanini, chinakamiga vatanparvar ekanini ham ko'ramiz. Umuman hikoyada Asror bobo g'oyat donishmand odam sifatida tasvirlanadi – u voqealarni bir-biriga taqqoslab, ularning ichki mohiyatini aniqlashga ham mohir. Bularning hammasi o'zbek qariyalarining xarakterli sifatini tashkil qiladi. Asror bobo butun mamlakat dushmanlarga qarshi hayot-mamot jangi olib borayotgan bir sharoitda odamning o'z dardi bilan andarmon bo'lib, ko'pchilikdan ajralib qolishni qoralaydi, aql-idroqni ishga solmay, faqat his-hayajonga berilib ish tutishni ma'qullamaydi. U o'g'lining dardiga harxasha qiladigan xotiniga dashnom berib, «ko'ngli yarimta bo'lsa, miyasi ham yarimtami?» deydi va uni el qatori yig'lashga undaydi. Ya'ni hamma qo'li bo'shaganda yig'laydi, sen yig'idan bo'shamaysan». Asror bobo xotini va do'sti Haydarga gazetada bosilgan xabarni tahlil qilib berar ekan, o'quvchi yana bir karra uning aqli o'tkirligiga qoyil qoladi. U urushda nobud bo'lgan qurol-aslahalar haqida o'qib berar ekan, ularni jangchilarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, xotinlari yetkazib berayotganini aytadi. Xuddi shu suhbatning oxirida, shunday fikr oldinga suriladiki, bu fikr Asror bobo mulohazalarining mantiqiy xulosasi bo'lib, uning e'tiqodi sifatida jaranglaydi: «To'g'ri, sen samolyot yasolmaysan, ketmon chopolmaysan. Lekin qilaman desang, qo'lingdan ish keladi. Sening ko'ragida o't bor, soch shu o'tni,

ho`lu quruq baravar yonsin». Asror bobo xotinini da`vat qilish bilan cheklanmaydi, u avvalo o`z so`zlariga o`zi amal qiladi. Uning ochgan samovari, shu samovarda urushga borib kelgan yigatlarning jangnomalarini eshitish-bularning bari Asror bobo «ko`kragida yongan o`tdan bino bo`lgan». Shu o`rinda yana bir g`oyat muhim savol ko`ndalang bo`ladi. Xo`sh, oltmishdan oshgan bir qariya ko`kragidagi bu o`tning o`zi qayerda paydo bo`lgan? E`zozlayotgan vatanparvarlikning mohiyati nimada? Nima boisdan u elu yurtini sevadi, nima uchun uning istiqboli, ozodligi uchun kurashga hissasini qo`shadi? «Asror bobo» hikoyasining asosiy g`oyaviy mazmuni xuddi shu savollarga javobdir. Asror bobo xarakteridagi eng muhim tomonlaridan biri shundaki, uning uchun vatan tushunchasi cheklangan, mavhum tushuncha emas, uning vatanparvarligi tarixan konkret ijtimoiy mazmunga ega. Xuddi shu xususiyat Asror boboni shu tuzum sharoitida shakllangan yangi inson deb ta`riflashga asos beradi. Hikoyada adib Asror bobodagi vatanparvarlik qanday. Abdulla Qahhor qahramonning hayot yo`lini batafsil tasvirlamaydi, uning tarjimai holini mukammal ko`rsatish yo`lidan bormaydi. Aksincha, uning o`tmishdagi hayotini bir-ikki belgi orqali juda ixcham lavhalarda chizadi. Biroq shunga qaramay, biz Asror bobo hayotidagi eng muhim voqealar haqida tasavvur hosil qilamiz va uning o`tmishi bilan bugungi hayotini taqqoslash imkoniga ega bo`lamiz. Asrorqul suyagi o`tmaslik, umrining ko`p qismi birovlar eshigida o`tgan. Nihoyat, tegirmonchilik kasbini egallab, qo`l uchida tirikchilik qiladi. Asrorqul suyagi mehnatda qotgan bo`lsa-da, tabiatan mutelikni yoqtirmaydi. Oqqoshsho mardikor o`lgan yili oq poshshoning devori yiqilgan bo`lsa, o`zining yurtidan mardikor olsin, biz bormaymiz, deb elga g`ulg`ula solgan. Keyin shahardan soldat kelib, ancha odamni haydab ketgach, Asrorqul boshqa qishloqqa qochib, jon saqlab qoladi. Qochgani sabab bo`lib tegirmondan ayriladi. Oqqoshsho taxtdan tushgandan keyin ham Asrorqulning kuni tug`maydi. Tegirmonni qaytarib olish umidida Ultarmaga borgan Asrorqul bo`shashib qaytib keladi. Shunday qilib, u ijtimoiy tengsizlik va adirlatsizlik tufayli o`z yurtiga sig`may qochoq bo`ladi, vatansiz qoladi.

Faqat keyingi davrdagina u yana qaytib Ultarmaga boradi, buzilgan tegirmonini tuzatadi va shu tegirmon bilan ishga kiradi.

Abdulla Qahhor Asrorqulning yangi davrda naqadar to`q, faravon va baxtli hayot kechirganini, boshidan qanday voqealar kechganini va hokazolarni gapirib o`tirmaydi. Biz faqat uning 35 yoshda bir beva ayolga uylanganini, undan o`g`il ko`rgani, o`z yurtida qochoq bo`lib yurgan kunlardan yodgor bo`lsin deb ismini Yodgor qo`ygani haqida ma`lumot olamiz, xolos. Ammo hikoyada shunday bir epizod borki, u bizga Asror boboning bu davrda ma`naviy jihatdan beqiyos o`sganini, batamom yangi odam bo`lib yetishganini ko`rsatadi. Mana, o`sha epizod: «Kampir yig`lab yuborgan edi. Asrorqulning achchig`i keldi.

- Tag`in! ...Ammo-lekin, xo`p kaltabop xotin bo`libsan-da! Burungi zamon bo`lsa, bironta qovurg`angni butun qo`ymas edim!..

- Mana, uring, sindiring qovurg`amni! Qo`rqmay qo`yaqoling, arz qilmayman.

- Arz qilishingdan qo`rqmayman, xotin urgani nomus qilaman». Buni qarang – yaqin-yaqinlarda shu Asror bobo ham boshqa minglab o`zbek erkaklari kabi qamchisidan qon tommagan erkak erkakmi!» deb yurgan emasmidi? Uning uchun xotin kishi til-zabonsiz, erksiz, huquqsiz,

Umr bo`yi urning qovoq-tumshug`iga qarab, uning har qanday xohishini so`zsiz ijro etib, qo`l qovushtirib yashashga majbur mushtipar, mungli maxluq emasmidi? Endi esa Asror bobo xotin urgani nomus qiladi! Shu birgina jumlada uning ichki dunyosida sodir bo`lgan juda katta. O`zgarish mana men deb, ko`rinib turadi. Xotin urishga nomus qiladigan odam, demak, o`z qadr-qimmatini yaxshi biladi, El-yurt ichida o`z nomining pok bo`lishini, nomusiga dog` tushirmaslikni o`ylaydi. O`z qadr-qimmatini bilish esa jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lish demakdir. Xullas, yozuvchi Asror boboning hayotini keng tasvirlamasa ham, ana shunday chizg`i yordamida uning xarakterida sodir bo`lgan o`zgarishlarni yaqqol ko`rsatadi.

Abdulla Qahhor san`atkorligi shundaki, u hikoyada Asror bobo xarakterining ijtimoiy mohiyatini uning insoniy tabiati bilan chambarchas

bogʻliq holda ochadi. Adib qahramonning insoniy sifatlarini ochish uchun, uni koʻz oʻngimizda betakror xususiyatlarga ega boʻlgan jonli inson sifatida gavdalantirish uchun hamma imkoniyatdan foydalanadi. Baʼzi epizodlarda Asror bobo oʻquvchi koʻz oʻngida hayotda koʻpni koʻrgan, yaxshi yomonni boshidan kechirgan, koʻrgan narsalaridan teran xulosalar chiqara oladigan, pok, halol, vijdoni toza, donishmand odam tarzida namoyon boʻladi. Baʼzi epizodlarda esa uning tinib-tinchimasligi, harakatchanligi ochiladi. Boshqa sahifalarda esa biz Asror boboni chinakam shoirona didga ega boʻlgan tarzda koʻramiz. Maʼlumki, Abdulla Qahhor koʻp asarlarida tabiat manzalarini tasvirlashga uncha oʻrin bermaydi. Ammo «Asror bobo» da samovarning tasviriga alohida eʼtibor beradi: «Asrorqul samovarini juda bahovo joyga qilgan edi. Ikki tom boʻyi pastda Shoʻxsoy shoda xuddi samovarning sahnidagi gulzorga oʻxshar toʻrt-besh kishilik talay supalarga son solib turardi. Supalarning oralariga, atrofiga anvoyi gullar ekilgan».

Adib bu goʻzal manzarani behuda keltirayotgani yoʻq, uning yordamida hamqishloqlarining qalbida goʻzallik tuygʻusini alangalantirishni istagan Asror boboning yuksak didini, nozik tabiatini taʼkidlamoqchi. Adib buni Haydar ota tilidan ifodalaydi.

Abdulla Qahhorga bagʻishlangan ilmiy ishlarning hammasida «Asror bobo» haqida gap ketar ekan, cholu kampir bir-biriga gʻoyat mehribonligi taʼkidlanadi, Yodgorning oʻlimini bir-birlaridan yashirishlari eslatib oʻtiladi. Bu toʻgʻri, haqiqatan ham, cholu kampirning shu munosabatlari orqali ularning insonligi, qalbi mehru shavqatga toʻlaligi yaxshi ochilgan. Biroq shu bilan birga hikoyada shunday shtrixlar borki, ular ham cholu kampirning oʻzaro munosabatlarini ochishda katta roʻl oʻynaydi. Xoʻsh, bu munosabatlar qanday? Asror bobo va uning kampiri bir-birini sevadimi? Albatta, oltmishdan oshgan odamlarga nisbatan masalani bu tarzda qoʻyish ancha erishroq tuyuladi.

Yozuvchi ham hikoyaning biron nuqtasida ularning oʻzaro muhabbati toʻgʻrisida ogʻiz ochmaydi. Biroq shunday boʻlsada biz bir qator epizodlarda bu ikki qariyaning oilasi gʻoyat mustahkam ekaniga, ular bir-biriga suyanib

qolganiga, bir-birini haddan ziyod hurmat qilishiga amin bo'lamiz. Hikoyada yana bir epizod bor. Abdulla Qahhorning psixologik tasvir bobida mahorat cho'qqilarini egallaganini ko'rsatadi. Cholu kampir va ularning mehmoni Haydar ota o'tirib osh yeyishyapti. Gap yana biri to'g'risida ketadi. Asrorqul ham, kampir ham asl kayfiyatini yashirishga urinadi. Ammo bunga erishavermaydi. Ayniqsa, kampir o'zini qo'lga ololmaydi. Shuning uchun ichidan yig'i to'ldirilgan kelganda o'zini tutish uchun Asrorqulga xarxasha qiladi:

- Muncha qurt-qurt qilib chaynaysang!

-Turp shunaqa bo'ladi-da, jonidan.

- Qayoqda, yumshoq non yesangiz ham beda yegan otga o'xshab chaynaysiz.

-Yuragingni keng qil.

-Nima qilibdi yuraginga? Menga o'xshab ertadan kechgacha uyda o'tiring-chi!»

Bu dialogda xalq tilining beqiyos ranglari tovlanib turganini aytmayoq qo'yaqolaylik. Uning asosiy xususiyati boshqa, bu dialog orqali yozuvchi o'z qahramonlarining shu daqiqadagi kayfiyatini oshkor qilyapti, qahramonlar esa xuddi shu iboralar bilan kayfiyatlarini bir-birlaridan yashiryapti. Xullas, shunga o'xshagan misollar hikoyaning yuksak san'at bilan yaratilganidan dalolat berib turibdi. Teran g'oyaviyliktom ma'nodagi haqqoniylik, qahramonlar xarakterini ochishdagi psixologizm, milliy o'ziga xos ranglarni muvaffaqiyat bilan qo'llash Abdulla Qahhorning barcha hikoyalarini adabiyotimizning eng barkamol asarlari darajasiga ko'tardi. Adib asarlarida tom ma'noda xalq xarakteri, unda o'zbek xalqining shakllanib ulg'aygan eng muhim xususiyatlari, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlikning an'anaviy manbalari yaxshi ifodalangan. Shu tufayli ham bu hikoyalar hamon o'quvchilarning ongiga ham, qalbiga ham oziq berib kelmoqda.

Xullas, yuqoridagi fikrlarimizdan ravshan bo'layaptiki, yozuvchi ongida ma'lum bir hayot hodisasining alomatlarini to'planadi. U ana shu hayot hodisasiga hamohang bo'lgan ko'rgan-bilganlarini, boshidan kechirgan kechinmalarini, xotira

va shaxsiy tajribasidagi hodisalarni u bilan sintezlashtiradi. Har tomonda tarqalib yotgan hodisalarni muayyan g'oya atrofiga uyushtiradi va bir butun narsa hosil qiladi. Tasavvur hamma faktlarni jilovlaydi, yozuvchi maqsad sari intigan sayin, o'zining shaxsiy hayoti va tajribasi davomida to'plagan, cho'kib yotgan o'xshash xotiralar, kechinmalar, holatlar uyg'onadi, yuzaga chiqadi, uni hayajonga soladi. Real hayot bilan yozuvchining o'z olami dialektik aloqaga kirishadi, bir-biriga singadi. Biri-birini to'ldiradi, biri-birini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun hamp asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlar turmushdagi faktlarga va odamlarga o'xshaydi. Ana shu o'xshashlikka asoslanib, ba'zi o'quvchilar u yoki bu asardagi voqea va qahramonlarni yozuvchi o'ylab topganiga ishonmaydilar. Ularning tushunchasicha, yozuvchi yaratgan voqealar, hodisalar hayotda aynan bo'lgan voqealar va qahramonlar esa bor kishilardir. Biz bu bobda maktabda o'quvchilar hayot bilan poetik ijodning, fakt bilan to'qimaning o'zaro aloqasi, ular o'rtasidagi me'yor masalani to'g'ri tushunishlari uchun Abdulla Qahhor ijodiga, u yaratgan hikoyalarga murojaat qildik. Tahlil shuni ko'rsatdiki, yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida A.Qahhorning adabiy merosi, adibning ijodi, xususan, roman va hikoyalarini o'quvchilarga yetkazishda realizm adabiyotning yetuk bosqichi ekanligini, u bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni, real hayotdagi odamlarning obrazlarini jonlantirishi, asl hayotga nisbatan tasodiflar, ikir-chikirlardan holi bo'lgan, to'liroq, ta'sirliroq, ishonchliroq qilib qayta yaratilgan olamning tasvirini berishini anglab yetishini maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Hikoya esa maktabda hayot haqiqati bilan badiiy haqiqatni yaxshi tushunishlari uchun juda ma'noli janr hisoblanadi, shuningdek, uning tarbiyaviy, dunyotanish va estetik qudrati nihoyatda kuchli bo'ladi. Bizning maqsadimiz esa mana shu janr namunalarini o'quvchilarga hozirgi talab darajasidan kelib chiqqan holda, to'la, ishonchli va ta'sirchan qilib yetkazishdir.

U M U M I Y X U L O S A L A R

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy tafakkur taraqqiyotidagi o'zgarishlar pedagogik fikr rivojining tubdan yangilanishiga sabab bo'lgani kabi pedagogik tafakkurdagi sog'lom tamoyillarga tayanish jarayoni maktab adabiy ta'limini jiddiy o'zgarishlar qilinishini taqozo qiladi. Yangilanayotgan ijtimoiy estetik tafakkur sharoitida umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitilishi borasida ro'y berilishi lozim bo'lgan o'zgarish va yangilanishlarning ilmiy-pedagogik jihatdan samarali bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifadir.

O'quvchi shaxsining shakllanishida maktab adabiyotining ro'li oshib borayotanligini qayd etish va mazkur o'quv fanining mohiyatini yangilangan pedagogika ilmi talablariga mos darajada ko'tarish muhim shart ekanligini ta'kidlash bilan hech qanday ish bajarib bo'lmaydi. Maktab adabiyotini yangilash jarayoni barcha ijtimoiy tushdagi faoliyatning asosini tashkil etuvchi metodologiyadan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Maktabda Abdulla Qahhor ijodini ma'lum tarixiy sharoitdagi adabiy jarayonga, u yoki bu badiiy asarga bog'lab o'rganiladi. Shu tarzda o'quvchilarga kichik sinflarda adib ijodidan berilgan dastlabki bilim sekin-asta chuqurlashtirilib o'rgatila boradi. Shuning uchun ham o'quv dasturida o'quvchilarga A.Qahhor bo'yicha ma'lumot berish bilan birga, ularning olgan adabiy-nazariy tushunchalarini mustaqil ishda, adabiy-tanqidiy asarlarni o'qish jarayonida ishlata olish ko'nikmasini hosil qilish lozimligi talab qilinadi.

Biz asosiy mavzuimizni tadqiq qilish, yozish borasida maktablarda Abdulla Qahhor adabiy merosidan bilim berishda qator qiyinchiliklar va muammolar borligiga amin bo'ldik. Maktabda badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmasini hosil qildirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Buning natijasida ularda o'qishga havas, adabiyotga muhabbat tuyg'usi o'stirilib, badiiy did shakllantiriladi. Adabiyot o'qitish oldiga qo'yilgan bu maqsadni amalga oshirishda, albatta adib A.Qahhor asarlari muhim ahamiyatga ega. Bu borada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan muayyan bilimlar ular ongida uzoq vaqt davomida shakllanib

borishi nazarda tutilib, adabiyot darslarida nazm va nasriy asarlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan qator A.Qahhor asarlari ichida hikoyalar muhim o'rinni egallaydi. Hikoyalarda hayotiy voqea va odamlarning xatti - harakati, o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Shu sababli, maktabda ular bir butunlikda o'rganiladi, asar mavzui, unda ko'tarilgan asosiy masala yoritiladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda nafosat tuyg'usi shakllantiriladi, ular qahramonlar obrazining xulq - atvori bilan tanishtiriladi, ularga yozuvchining so'z san'atkori ekanligi tushuntiriladi. Ta'kidlash joizki, Abdulla Qahhor yaratgan tom ma'nodagi durdona asarlar o'zbek adabiyotining xazinasini boyitdi. Yozuvchining o'zi esa o'zbek adabiyotida yangi realistik hikoya janrining asoschisi bo'lib qoldi. Uning hikoyalarini tahlil qilgan ba'zi adabiyotshunoslar Abdulla Qahhorni jahon adabiyotidagi yirik novellistlar qatoriga qo'yishadi.

Biz, malakaviy bitiruv ishimizni ikki asosiy bobga ajratib, unda asar kompozitsiyasi, hayot haqiqati va badiiy haqiqat masalalarini tahlil qilishga va undan tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildik. Maktabda adabiy-nazariy tushunchalarni o'qitish yo'llarini o'rganar ekanmiz, uni atroflicha yoritish, o'ziga xos tamoyillarni tahlil qilish maqsadida Abdulla Qahhor hikoyalarini ishimizning asosiy ob'ekti sifatida tanladik. Darhaqiqat, bir necha yildan buyon o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq o'quv va amaliyotimiz, o'qituvchilarning darslarida ishtirok etib, olgan taasurotlarimiz, qo'nglimizdan o'tgan his-tuyg'ularimiz bitiruv ishimiz mavzusini tanlashga asos bo'ldi. Ikkinchi sabab esa maktabda adabiyot nazariyasini chuqur o'rganish, ayniqsa, bu masalani Abdulla Qahhor hikoyalari asosida o'rganish eng dolzarb masalalardan sanaladi. Qolaversa, bu yo'nalish metodik adabiyotlarda hanuzgacha maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Ta'kidlash joizki, taniqli olimlar, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasiga muayyan hissasini qo'shgan Asqar Zunnunov, Jabbor Esonov va boshqalar o'rta maktabda adabiyot fanini o'qitish masalalarini tadqiq etishda ancha mehnat qildilar. Ular maktabda adabiy – nazariy tushunchalarni shakllantirish borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashib, o'zlarining bir qator ko'rsatma va tavsiyalar berganlar. Ular «maktabda adabiyot

nazariyasi adabiyot tarixiga, ma'lum tarixiy sharoitdagi adabiy jarayonga, u yoki badiiy asarga bog'lab o'rganilishi lozim» ligini uqtiradi. Haqiqatan ham, shu tarzda adabiyot nazariyasidan berilgan dastlabki bilim I-IV sinflarda berilsa, V – IX sinflarda u bir qadar chuqurlashtiriladi, X - XI sinflarda esa izchillikda o'rganiladi, kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Olingan har qanday bilim hayotda –amaliyotda samarali qo'llanishi bilan kuchli. Shuning uchun ham o'quv dasturida o'quvchilarga adabiyot nazariyasidan ma'lumot berish bilan birga, ularning olgan adabiy - nazariy tushunchalarini mustaqil ishda, adabiy - tanqidiy asarlarni o'qish jarayonida ishlata olish ko'nikmasini hosil qilish lozimligi talab qilinadi. Shu bilan birga, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan nazariy bilimlar ular ongida uzoq vaqt davomida, sinfdan - sinfga o'tish bilan shakllanib borishi nazarda tutilib, bu bilimlarni vaqti - vaqti bilan takrorlab, mustahkamlab borish kerakligi tavsiya etiladi. Masalan, adabiyot - san'atning bir turi, atrof - muhitni anglashda va inson tarbiyasida kitobning ahamiyati haqida V sinfdan o'rganilgan nazariy tushuncha VI sinfdan badiiy asarda insonning asosiy qahramon sifatida tasvirlanishi haqidagi umumiy nazariy ma'lumot bilan to'ldiriladi. Natijada, V-VI sinf o'quvchilari bu nazariy tushunchalarni o'zlari o'qigan xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot namunalari bilan bag'langan holda o'rganib, so'z san'atida ifodalangan masalalar bilan tanishadilar. Ular adabiy janrlarning xilma-xil ekani va shu janrlarda yaratilgan badiiy asarlarda inson asosiy qahramon sifatida yoritilishini, uning ichki kechinmalari va xatti-xarakati badiiy aks ettirilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. V – IX sinflardagi adabiyot darslarida o'quvchilarni tez va ifodali o'qish ko'nikmasini egallashga o'rgatish, ularda badiiy asarni tahlil qitlash malakasini hosil qildirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Buning natijasida ularda o'qishga havas, adabiyotga muhabbat tuyg'usi o'stirilib, badiiy did shakllantiriladi. Maktabda adabiyot o'qitish oldiga qo'yilgan bu maqsadni amalga oshirishda adabiy-nazariy tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Maktabda adabiyot o'qitish oldiga qo'lgan bu maqsadni amalga oshirishda adabiy-nazariy tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Masalan, V sinfdan

o`quvchilar adabiyotni muntazam suratda o`rganishga kirishar ekanlar, dastur talabiga ko`ra, ular avvalo, adabiyotning san`at turi ekanligi, uning o`quv Fani sifatidagi vazifalari, o`zlarini o`rab olgan borliq va o`z-o`zini anglashda kitobning ro`li bilan asta-sekin tanisha boradilar, adabiy tur va janrlarning xilma-xilligi haqida muayyan tasavvurga ega bo`ladilar.

Umumta`lim maktablarida Abdulla Qahhor adabiy merosini o`rgatish masalalariga bag`ishlangan ushbu malakaviy bitiruv ishimizda biz, asosan, masalani bir-biri bilan o`zaro bog`langan ikki bo`limga bo`lib o`rganishni ma`qul ko`rdik. Chunki, adib ijodi o`zinig janriy va mavzuviy jihatiga ko`ra, uni ko`proq hikoya janri asosida o`rgatish lozimligi bilan ko`zga tashlanadi.

Ishda, asosan, adabiyot nazariyasining ijtimoiy hayotda o`ynagan ro`li, badiiy adabiyotning o`ziga xos xususiyatlari xaqida, badiiy ijodning turlari, badiiy asarning tuzilishi va ijod jarayonining qonuniyatlari o`rganildi. Taniqli o`zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor adabiy merosini o`rganish asnosida yuzaga kelgan xulosalarni asoslash maqsadida biz epik asarlariga murojaat qildik va tahlil jarayonida kelib chiqqan xulosalarimizni adibning hikoyalarida foydalanishi lozim bo`lgan nazariy tushunchalar bilan mustahkamlab bordik. Hikoyalar tahlili jarayonida, biz, adib hikoyalarining kompozitsiyasi, hayotiy haqiqat va badiiy haqiqat tushunchalariga, bunda asosiy e`tibor nimalarga qaratilishi lozim va bu qanday yo`llar bilan o`zlashtiriladi, natijasi qanday bo`ladi kabi masalalarni yechishga harakat qildik. Darhaqiqat, metodika sof ilmiy ishdan ko`ra tajribaga, amaliyotga moyil. Bu aksariyat hollarda jiddiy tajribani xulosalab, aniq bir gipotezaga tushurishni maqsad qiladi, ko`p hollarda esa eksperimentga ham suyanadi. Ayni paytda uning ilmiyligi ham ana shu tajribaga suyanadi. Bitiruv malakaviyy ishida, biz, o`z tajribamiz bilan bir qatorda yetuk o`qituvchilarning ham tajribasiga amal qildik, ularning eng maqbul tomonlaridan ishimizda zarurat qadar foydalandik. V-VIII sinflarda adabiyot nazariyasidan saboq berishda bir qator o`ziga xos tamoyillari mavjud. V-VIII sinflarda ko`pincha alohida asarlar o`qitilib, dars asosan tahlil tarzida tashkil etiladi. Yuqori sinflarda esa asar tahlili uning janri, muallif ijodining o`sish yo`llarini tanitish,

davr adabiyotiga qo'shgan hissasini atab o'tish bilan bog'liq holda o'rgatishga diqqat qaratiladi. Abdulla Qahhor ijodinini maktabda o'qitishdan yana bir maqsad – yoshlarni badiiy asar orqali yuksak tarbiya berishdir. Ishda adib hikoyalarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash masalasi haqida ham so'z yuritildi. Albatta, tarbiya bilan bilim egizak desakda, tarbiya berish deganimiz – asarning tabiati, g'oyaviy yo'nalishina ham bog'liqdir. Masalan, A.Qahhor hikoyalarini o'tishda tarbiyaning mana shu turi beriladi deya uzil-kesil aytib bo'lmaydi. Zero, tarbiya bu kompleksli ish. Asarlarida mehnat ham, aql - farosat, insoniylik bilan shijoat, topqirlik xususiyatlari ham keng targ'ib qilinadi. Buning barchasi umumxalq tarbiya, xalq pedagogikasi hisoblanadi.

Malakaviy - bitiruv ishimizda tahlilga tortilgan masalalarni umumlashtirib, biz quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim degan xulosaga keldik:

1. Maktabda Abdulla Qahhor adabiy merosini o'qitishning to'la metodikasi ishlab chiqilmadi. Shu sababli, eng avvalo, har bir o'qituvchi o'zi izlanishi, fanga ijodiy munosabatda bo'lishi, o'qitishning samarali yo'llarini izlab va amalda qo'llab borishlari kerak bo'ladi.
2. Adabiyot darslariga berilgan soatlardan kelib chiqqan holda, har bir o'qituvchi o'zining rejasini oldindan to'g'ri tuzib olishlari, ajratilgan soatlar davomida adib ijodi bo'yicha yangi davr nuqtai nazaridan ma'lumotlar berib borishi lozim. Avvalgi darsda berilgan ma'lumotni yana takrorlash, o'quvchilarni zeriktiradi va u qiziqishini yo'qotadi.
3. Epik asarlar, jumladan hikoyalar tahlilida kompozitsiya, syujet, uning unsurlari, obrazlar tizimi, ideya bilan mavzu haqida batafsil ma'lumot berilishi lozim. Boshqa janrlarga nisbatan, hikoya janrining imkoniyatlari juda katta. Demak, hikoya janri o'quvchiga adabiy – nazariy bilimlarni berishda eng asosiy va qulay janr hisoblanadi. O'qituvchilar buni esdan chiqarmasligi kerak.
4. Badiiy haqiqatning asosi hayotdir. Chunki, yozuvchining ko'rgan-bilganlari va shaxsiy tajribasi, kechinma va taasurotlari badiiy asarni yuzaga kelishida eng asosiy omil sanaladi. Bu haqda biz ishimizda kerakligicha so'z yuritganmiz.

Shu bois, bunday nazariy tushunchalar o`quvchi ongiga, asarda ko`tarilayotgan masalani yaxshi o`zlashtirishga yordam beradi.

5. Adabiyot fani o`quvchilarga tarbiya berishdagi asosiy fanlardan hisoblanadi. Xususan, Abdulla Qahhor asarlarining o`quvchilarda milliy o`ziga xoslik, insoniylik, olijanoblik, halollik ruhida tarbiyalash, ularning estetik didini o`rttirishdagi ahamiyati katta. Shuning uchun ham, hikoya janrini tarbiya masalalari bilan baqamti olib borilishi maqsadga muvofiq deb sanaymiz.

6. Shuningdek, adib hikoyalari tahlili jarayonida olingan nazariy bilimlarni badiiy vositalar va zamonaviy texnik qurollardan samarali foydalanish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri deb hisoblaymiz.

Agar bu zarur vositalar talab darajasida tayyorlansa, unumli foydalanilsa, o`quvchilar asarning ideyasi, kompozitsiyasi, badiiy qimmatini to`g`ri anglab, masalani yaxshi o`zlashtiradi degan fikrdamiz.

Umuman, maktabda o`quvchilarning adabiyot Abdulla Qahhor adabiy merosiga oid bilimlarini uzluksiz va tartibli tarzda boyitib, chuqurlashtirib va mustahkamlab borish o`qituvchi e`tiboridagi muhim vazifa bo`lib qolmog`i lozim.

A D A B I Y O T L A R

1. Karimov. I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. -T., «Ma`naviyat», 2008.
2. Karimov. "Adabiyotga e`tibor-ma`naviyatga, kelajakka e`tibor.
-T., "O`zbekiston", 2009.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T., «Sharq», 1998.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun hammamiz mas`ulmiz. -T.,
«O`zbekiston», 2001.
5. Zunnunov A. va b. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T., 2002.
6. Zunnunov A., A. Avliyoqulov. Pedagogik tadqiqot usullari. -T., 2002.
7. Vahhobov A., Qozichonov M. Ta`limi adabiyot bar maktab. Dushanbe, 1988.
8. Yo`ldoshev Q. O`qituvchi kitobi. Metodik qo`llanma. 7-sinf. O`zbek adabiyoti,
darslik majmuasi uchun. -T., 1997.
9. Babaev T. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo`yicha o`quv-metodik
qo`llanma. -T., 1979.
10. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. -T., O`qituvchi., 2001.
11. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli
lug`ati. -T., 1983.
12. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. - T., O`qituvchi. 1996.
13. To`xliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun
darslik. -T., O`qituvchi., 2002.
14. Mirqosimov M. O`qituvchilarni adabiy-estetik tahlilga o`rgatish. -T., 1994.
15. Qahhor A. Asarlar. Olti tomlik. 2-tom. -T., 1979.
16. Sharq yulduzi. j., 1986 y., 8-son, 124-bet.
17. Nazarov B. O`zbek adabiy tanqidchiligi. «Fan» nashriyoti. -T., 1979.
18. Abdusamatov H. Abdulla Qahhor. -T., 1960.
19. Qahhor A. «Anor». -Toshkent., 1968.
20. Qahhor A. «O`g`ri». -Toshkent., 1968.
21. Qahhor A. «Ko`k konvert». -Toshkent., 1972.
22. Rez` Z. Ya. i dr., Metodika prepodovaniya literaturi, -M.: 1977.